

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**N.M.O‘RINOVA, D.A.YO‘LDOSHEVA**

**KREATIV**  
**PEDAGOGIKA**

*Darslik*

**Farg‘ona-2025**

**UO‘K:**

**KBK:**

**N.M.O‘rinova, D.A.Yo‘ldosheva.**

**Kreativ pedagogika//Darslik– Farg‘ona, 2025. 121 bet.**

Mazkur darslikda kreativ pedagogikaning umumiy asoslari, kreativ psixologik-pedagogik texnologiyalar turlari va mazmuni yoritilgan. Shu bilan birga darslik fan bo‘yicha mustaqil ta‘lim topshiriqlari, glossariy, hamda test savollari to‘plamini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Darslik oliy ta‘limning 60110100-“Pedagogika” yo‘nalishi talabalari uchun “Kreativ pedagogika” fanidan tavsiya etiladi. Shuningdek, darslikdan “Maktabgacha ta‘lim” va “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ham foydalanishlari mumkin.

This manual describes the general principles of creative pedagogy, the types and content of creative psychological and pedagogical technologies. At the same time, the study guide includes self-study assignments, a glossary, and a set of test questions.

The study guide is recommended for students of higher education 60110100- "Pedagogy" subject "Creative pedagogy". Also, students studying in "Preschool Education" and "Primary Education" can use the textbook.

### **Taqrizchilar:**

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

***Mazkur darslik Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
\_\_\_\_\_ 25- \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etilgan  
(Ro‘yxatga olish raqami – \_\_\_\_\_)***

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	6
<b>1-BOB</b> KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O'RGANISHGA NAZARIY VA EKSPERIMENTAL YONDASHUVLAR ....	8
<b>1.1.</b> Kreativ pedagogikaning umumiy asoslari. Kreativ pedagogika ilmiy yo'nalish sifatida .....	8
<b>1.2.</b> Kreativlik muammosiga zamonaviy yondashuvlar .....	23
<b>1.3.</b> Kreativlik o'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim xususiyati sifatida .....	32
<b>1.4.</b> Kreativ kompetensiya mezonlari va darajalari. Pedagogika bakalavrining kreativ kompetensiyasini shakllantirishning yetakchi tendensiyalari, tamoyillari va omillari.....	38
<b>1.5.</b> O'qituvchi modelining umumiy xususiyatlari. Kreativ kompetensiyani shakllantirishning muallif modeli.....	42
<b>1.6.</b> Pedagogning o'quv va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ta'lim va ma'naviy-axloqiy rivojlanishi muammolarini hal qilish qobiliyati .....	52
<b>2-BOB.</b> KREATIV PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.....	59
<b>2.1.</b> Kreativ psixologik-pedagogik texnologiyalar-ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashni amalga oshirishning yangi ta'lim paradigmasi sifatida.....	59
<b>2.2.</b> Kreativlikni muammolar va nostandart vazifalarni hal qilish jarayoni sifatida tushunish .....	64
<b>2.3.</b> O'quv jarayonini tashkil etishning progressiv ta'lim modellari.....	68
<b>2.4.</b> Kreativ texnologiyalar: evristik usullar va ijodiy usullar .....	73
<b>2.5.</b> Kreativlikni rivojlantirishning psixologik usullari .....	78
<b>2.6.</b> Art-kreativ metodlar .....	84
<b>Mustaqil ta'lim topshiriqlari</b> .....	89
<b>Glossariy</b> .....	101
<b>Test savollari</b> .....	110
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	118

## СОДЕРЖАНИЕ

	<b>Введение .....</b>	<b>6</b>
<b>1-ВОВ</b>	<b>ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ КРЕАТИВНОЙ ПЕДАГОГИКИ.....</b>	<b>8</b>
1.1.	Общие принципы творческой педагогики. Креативная педагогика как научное направление .....	8
1.2.	Современные подходы к проблеме творчества .....	23
1.3.	Творчество как важнейшая черта инновационной деятельности педагога .....	32
1.4.	Критерии и уровни творческой компетентности. Ведущие тенденции, принципы и факторы формирования творческой компетентности бакалавра педагогики.....	38
1.5.	Общая характеристика модели учителя. Авторская модель формирования творческой компетентности.....	42
1.6.	Умение учителя решать задачи воспитательного и духовно-нравственного развития учащихся в учебной и внеурочной деятельности .....	52
<b>2-ВОВ.</b>	<b>ТВОРЧЕСКИЕ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ .....</b>	<b>59</b>
2.1.	Креативные психолого-педагогические технологии как новая образовательная парадигма реализации подготовки кадров в образовательных организациях .....	59
2.2.	Понимание креативности как процесса решения проблем и нестандартных задач .....	64
2.3.	Прогрессивные образовательные модели организации процесса обучения .....	68
2.4.	Креативные технологии: эвристические методы и креативные методы .....	73
2.5.	Психологические методы развития креативности .....	78
2.6.	Художественно-творческие приемы .....	84
	<b>Самостоятельные образовательные задания .....</b>	<b>89</b>
	<b>Глоссарий .....</b>	<b>101</b>
	<b>Тестовые вопросы .....</b>	<b>110</b>
	<b>Список использованной литературы .....</b>	<b>118</b>

## CONTENT

	<b>Introduction</b> .....	6
<b>1-BOB</b>	<b>THEORETICAL AND EXPERIMENTAL APPROACHES TO THE STUDY OF CREATIVE PEDAGOGY</b> .....	8
1.1.	General principles of creative pedagogy. Creative pedagogy as a scientific direction .....	8
1.2.	Modern approaches to the problem of creativity .....	23
1.3.	Creativity as the most important feature of a teacher's innovative activity .....	32
1.4.	Criteria and levels of creative competence. Leading trends, principles and factors in the formation of creative competence of a bachelor of pedagogy.....	38
1.5.	General characteristics of the teacher's model. Author's model of the formation of creative competence .....	42
1.6.	The teacher's ability to solve problems of educational and spiritual and moral development of students in curricular and extracurricular activities .....	52
<b>2-BOB.</b>	<b>CREATIVE PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES</b> .....	59
2.1.	Creative psychological and pedagogical technologies as a new educational paradigm for the implementation of personnel training in educational institutions .....	59
2.2.	Understanding creativity as a process of solving problems and non-standard tasks.....	64
2.3.	Progressive educational models of organizing the learning process .....	68
2.4.	Creative technologies: heuristic methods and creative methods .....	73
2.5.	Psychological methods for developing creativity .....	78
2.6.	Art-creative techniques .....	84
	<b>Independent Education assignments</b> .....	89
	<b>Glossary</b> .....	101
	<b>Test questions</b> .....	110
	<b>List of literature used</b> .....	118

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni mazmunida mamlakatimizdagi hozirda mavjud ta’lim tizimini modernizatsiyalash, uzluksiz ta’limni yanada rivojlantirish orqali barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalash, uni mutaxassis sifatida shakllantirish, jamiyatda munosib kasbiy-ijtimoiy statusga erishishida oliy ta’lim muassasalarining roli muhim ekanligi qayd etilgan.

XXI asrning kompetensiyalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan xalqaro modellar ichida “4K” kompetensiyalari butun dunyoda qo‘llanilayotgan modellardan biridir. Haqiqiy kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘shimcha ravishda, XXI asr ko‘nikma va kompetensiyalari doirasida taklif qilingan, unda “innovatsion ko‘nikmalar” – tanqidiy fikrlash, muammoli masalalarni hal qilish, kreativlik va innovatsion qobilayat, kommunikativlik va kolloboratsiya, shu bilan birga “hayot” yoki “karyera” ko‘nikmalarining umumiy to‘plamini tashkil etadi.

Modelning markaziy qismini “4K” kompetensiyalari egallaydi: kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kooperatsiya (o‘zaro hamkorlik). Ushbu kompetensiyalarni qanday shakllantirishni tushunish uchun ularning har biri nimani o‘z ichiga olganligini aniqlash kerak.

Har bir inson, jamoalar va umuman jamiyat zamonaviy hayotining tobora murakkablashib borishi bizning muammolarimiz yechimlari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lishi kerakligini anglatadi. Tenglik va erkinlik, individuallik va jamiyat, an’analar va innovatsiyalar, avtokratiya va demokratiya o‘rtasidagi muvozanatni izlashda yanada yaxlit yechimlarni topishni o‘rganishga olib keladi.

“4K” kompetensiyalarini shakllantirish va baholash masalalariga ijodiy yondashish kerak, ammo oqibatlari haqida unutmashlik, foyda va xatarlarni baholash va eng muhimi, ish natijalari uchun javobgar bo‘lish kerak.

Hozirgi zamonaviy talaba mustaqil fikr ifodalashga, tinimsiz izlanishga, ilm-fan, madaniyat, texnika va jamiyatdagi fundamental va hayotiy amaliy muhim muammolarni hal etish vaziyatlarida muloqotga tayyor bo‘lishi zarur. Bunday talab zamonaviy mehnat bozori uchun raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashdagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarda kreativ fikrlash ko‘nikmasiga ega yuqori malakali mutaxassislarga talab va ehtiyoj ortmoqda.

Hozirgi kunda bo‘lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanadi:

birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta’lim tizimi va uning metodologiyasi, o‘quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi.

Bunday sharoitda esa o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida pedagogik yangiliklarga intilish, ilg'or tajriba va yutuqlarni ijodiy o'zlashtirish, ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarini egallashdan iborat. Bu pedagogik hodisalar kreativ kompetentlikni rivojlantirish zaruriyatini taqozo etadi;

ikkinchidan, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili asosida tashkil etish, o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, metodlari va texnologiyalarini qo'llash, ya'ni ta'lim jarayoniga innovatsiyalar kiritish zarur hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalar kiritishining muhim shartlaridan biri esa o'qituvchining innovatsion tayyorgarlik jarayoni va kreativligi bilan tavsiflanadi;

uchinchidan, pedagogik yangilikni ijodiy o'zlashtirish va uni amaliyotga tadbiq etishga nisbatan bo'lajak pedagoglarda faol mayllarni rivojlantirish.

Har bir mutaxassis kompetentlikka ega bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentlikka erishishida talabalik davridayoq poydevor qo'yiladi hamda kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Pedagogning o'zini-o'zi kreativ faoliyatga yo'naltirishi va bu holatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda amalga oshiriladigan ta'lim modellari talabalarning qobiliyatini to'liq ochib berishga imkon bermaydi. Ta'lim muassasalarida o'quv fanlarni o'qitish, birinchi navbatda, talabalarning bilim va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, talabalarning kreativligini rivojlantirish sharoit va imkoniyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Ushbu muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, lekin konseptual va protsessual jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Oliy ta'lim muassasasida mutaxassis, asosan, bilimning nazariy asoslarini oladi va kasbiy faoliyat jarayonida amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, deb hisoblashadi.

Darslikning maqsadi kreativ pedagogikaning umumiy asoslari, kreativ psixologik-pedagogik texnologiyalar turlari va mazmuni haqidagi bilimlar bilan talabalarni qurollantirish.

Shu bilan birga ushbu darslik fan bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari, glossariyni ham o'z ichiga qamrab oladi. Darslik "Pedagogika", "Maktabgacha ta'lim" va "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Darslikning o'ziga xosligi shundaki, materialning muhim qismi jadvallar shaklida taqdim etilgan. Bu talabalarga ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim uchun o'quv-uslubiy manbaa bo'lib xizmat qiladi.

***Mualliflar***

## **1-BOB. KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O'RGANISHGA NAZARIY VA EKSPERIMENTAL YONDASHUVLAR**

---

**Bobning qisqacha mazmuni:** *kreativ pedagogikaning umumiy asoslari, kreativ pedagogika ilmiy yo'nalish sifatida, kreativlik muammosiga zamonaviy yondashuvlar, kreativlik o'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim xususiyati sifatida, kreativ kompetensiya mezonlari va darajalari, pedagogika bakalavrining kreativ kompetensiyasini shakllantirishning yetakchi tendensiyalari, tamoyillari va omillari, o'qituvchi modelining umumiy xususiyatlari, kreativ kompetensiyani shakllantirishning muallif modeli, o'quv va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ta'lim va ma'naviy-axloqiy rivojlanishi muammolarini hal qilish qobiliyati.*

**Tayanch iboralar:** *kreativlik, kreativ pedagogika, kategoriya, kreativlikni aniqlash tetslari, pedagogning kreativligi, mezonlar, kompetensiya, kreativlik sifatleri.*

### **1.1. Kreativ pedagogikaning umumiy asoslari. Kreativ pedagogika ilmiy yo'nalish sifatida.**

*“Kreativlik” va “Kreativ pedagogika” tushunchalarining mohiyati. Kreativ pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti. Kreativ pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi. Kreativ pedagogikaning muhim kategoriyalari. Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.*

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson

ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etiladi.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko'rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007-yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli video lavha YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.). O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilmoqda, Ta'lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan'anaviy darslar tashkil etilmoqda (Ali, 2011; Ta'lim departamenti, 2013 y.).

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs (o'zlarida hamda talabalarda) kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturlari

ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarning kasbiy o‘shishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o‘quv yilining oxirida kelib oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab talabalarning ta‘lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti. Ta‘lim tizimini boshqaruvchi organlar ta‘lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta‘lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki ta‘lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta‘lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.<sup>1</sup>

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma‘noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma‘lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir.

Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydilar (Kim, 2005 y.).

---

<sup>1</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan‘anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e‘tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

**Kreativlik**-(lot.,ing. “create”-yaratish, “creative”-yaratuvchi, ijodkor)- individning yangi g‘oyalarini ishlab chiqishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e‘tiborini ta‘lim jarayoniga faol jalb etishni ta‘minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash

imkoniyatini yaratadi. O'quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanotlantirishi lozim.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

**Pedagogik kreativlik** - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

"Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularning o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2) o'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qo'l keladi hamda talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi.

Ko'z oldingizga ta'lim jarayonini yuksak mahorat bilan boshqarayotgan, uni o'ziga xos va qiziqarli tarzda jo'shqinlik, zavqu shavq bilan tashkil etayotgan o'qituvchini keltiring. U, garchi, o'zini kreativ shaxs yoki ijodkor deb bilmasa-da, biroq, kreativlikni namoyon etuvchi ta'lim jarayonini tashkil etayotganidan, unga

imkon beradigan metod, usullarni qo'llayotganligidan o'zi ham mamnun, qolaversa, talabalarning minnatdor bo'lishlariga erishmoqda. O'qituvchi ta'lim jarayonida kreativ metod, usullardan qancha ko'p foydalansa, o'ziga va o'zining ijodiy, kreativ imkoniyatlariga nisbatan ishonchi shuncha ortadi.

Pedagoglar tomonidan kreativlik sifat va ko'nikmalarining o'zlashtirilishida fan sifatida "Kreativ pedagogika" muhim o'rin tutadi.

Kreativ pedagogika- 1) pedagogda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogic muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish; 2) talabalarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o'quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g'oyalarni ilgari surish qobiliyati ko'nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi fan.

Har qanday fan kabi "Kreativ pedagogika" o'quv predmeti ham aniq maqsadni ko'zlaydi.

"Kreativ pedagogika" fanining **maqsadi** shaxsni kreativ o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat.

"Kreativ pedagogika muayyan vazifalarni bajaradi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) Ta'lim mazmuni, o'quv rejalari va dasturlarini saralash;
- 2) O'quv moduli (fani)ni o'qitishning taktika va strategiyalarini belgilash;
- 3) Mos psixologik-pedagogik tashxis vositalarini tanlash;
- 4) Ta'lim oluvchilarning kreativ rivojlanishini bashoratlash;
- 5) Kreativ shaxsni shakllantirishning boshqaruv tizimini ishlab chiqish.

Ma'lumki, har bir fan o'zining tadqiqot obyekti va predmetiga ega bo'ladi. "Kreativ pedagogika" ham o'z obyekti va predmetiga ega.

Ular:

### **Obyekti**

Barcha yosh bosqichlari bo'yicha kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish jarayoni

### **Predmeti**

Kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasi, ustuvor tamoyillari, yetakchi g'oyalari, muhim yo'nalishlari, asosiy bosqichlari va b.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi holatlar so'z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- talabalarining kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

- mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;

- talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tadbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Har qanday fan singari "Kreativ pedagogika" fani ham o'zining tarkibiy tuzilmasiga ega. Ushbu fan quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

- **kreativ ta'lim asoslari:** maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, subyektlari, mazmuni, metodologiyasi, shakllari, metodlari, vositalari, metodikasi va texnologiyalari
- malakali kadrlarni tayyorlash va ular tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kreativ shaxsni shakllantirish **bosqichlari**

Kreativ pedagogikaning umumiy mohiyati uning konseptual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:



**Ijodkorlik**-muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida ob’ektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs.

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o‘rgatish va o‘zini o‘zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni.

Ijod – ijtimoiy sub’ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

Ijodkor shaxs – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g‘oya, ularni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish hamda rivojlantirish.

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo‘naltirilgan masalalar tizimi.

Kasbiy-ijodiy imkoniyat – 1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o‘zlashtirganlik; 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; 4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob’ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko‘rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot.

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.


Kreativ qobiliyat – shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta’minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati.

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligi.

O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi.

Pedagoglarning kasbiy-ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarni ijobiy hal qilish va ularning yechimini tegishli darajada baholashda ko‘rinadi.

Shaxs kamolotini ta‘minlash, uning intellektual, ma‘naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi. Shu bilan birga “Kreativ pedagogika” fani bir qator ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi masalalarini tadqiq etadi (2-rasm).



2-расм. Креатив педагогиканинг педагогика туркум ва ижтимоий фанлар билан ўзаро алоқадорлиги

Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti – har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirish, unda dunyoqarash va yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, pedagogik fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixini, turli davrlarda bola tarbiyasini tashkil etishga oid bilimlarning shakllanishini tadqiq qiladi.

Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi – maktabgacha ta‘lim yoshi bolalarini tarbiyalash, ularga boshlang‘ich bilimlarni berish masalalarining tadqiqi bilan shug‘ullanadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika – imkoniyati cheklangan kar-soqov (surdopedagogika), ko'r (tiflopedagogika), aqliy jihatdan rivojlanishda ortda qolgan (oligofrenopedagogika) bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Xususiy metodika (xususiy fanlarni o'qitish) – turli o'quv fanlari (mas., fizika, matematika, biologiya, kimyo, tarix, huquq, jismoniy tarbiya va h.k.z.lar)ni o'qitishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qiladi.

Kasbiy pedagogika – turli (ijtimoiy, texnik, madaniy-maishiy, ishlab chiqarish) yo'nalishlarida tegishli soha (mas., qishloq xo'jaligini rivojlantirish, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va boshqalar) bo'yicha kasbiy faoliyatni samarali yo'lga qo'yish yo'llarini o'rganadi.

Ta'lim menejmenti – ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish masalalarini tadqiq qiladi.

Qiyosiy pedagogika – ta'limning jahon, mintaqa, davlat miqyosidagi rivojlanishining umumiy va alohida tendensiyalari, qonunlari va qonuniyatlarini o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganadi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlarini, milliy pedagogik madaniyatlar almashinuvining shakl va usullarini aniqlaydi.

Pedagogik innovatika – ta'lim sub'ektlari nuqtai nazardan pedagogik innovatsiyalarning mohiyati, paydo bo'lish, rivojlanish qonuniyatlarini hamda pedagogik an'analardan kelajak ta'limining loyihalashtirilishi o'rtasidagi aloqalarni o'rganadigan fan.

Harbiy pedagogika – harbiy ta'limning o'ziga xos jihatlarini, uni tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalari, ilg'or texnologiyalarini, harbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish yo'llarini ochib beradi.

Hamkorlik pedagogikasi – turli fanlar yoki mutaxassislik asoslarining ta'lim beruvchi hamda oluvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot asosida samarali o'rganish mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalarini ko'rsatib beradi.

Neyropedagogika – inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy hulq-atvorni psixologik korreksiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, shuningdek, yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi.

Pedagogik texnika – nopedagogik OTM pedagoglarini pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslari bilan tanishtirish orqali ularda ta'lim jarayonini sifatli, samarali tashkil etish ko'nikma, malakalarini rivojlantirish masalalarini o'rganadi.

Pedagogik kvalimetriya – ta'lim sifatini izchil nazorat qilish va samarali boshqarishga oid muammolarni tadqiq etadi. Pedagogik jarayonlarning tizimli tahlili – pedagoglarda ta'lim va tarbiya jarayonlarining mohiyatini yaxlit tizim sifatida anglash, turli, shu jumladan, muammoli vaziyatlarni yaxlit, izchil tahlil qilish malakalarini rivojlantirish muammolarini tadqiq etadi.

Pedagogik prognostika va pedagogikaning istiqbolli yo'nalishlari – mavjud sharoitda pedagogik turkum fanlarni sifatli o'qitish, ta'lim va tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini izlash, istiqbolli yo'nalishlarini belgilash masalalarini tahlil etadi.

Pedagogik jarayonni boshqarishda qarorlar qabul qilish – pedagoglar tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarining izchil, tizimli, samarali boshqarilishini ta'minlash, mavjud pedagogik vaziyatlarda tizimli tahlil asosida oqilona qarorlar qabul qilinishiga erishish masalalarini o'rganadi.


Falsafa – tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Estetika asoslari – nafis san'atni, badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go'zallikning mohiyati, shakllarini, inson va ijtimoiy borliq o'rtasidagi qadriyatlar munosabatini o'rganadi.

Psixologiya – inson faoliyati, shaxs xatti-harakatlarida borliqning aks etishini, ruhiy jarayonlar, hodisalar va xislatlarning mohiyatini yoritadi.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni, natijalari hisobiga ta'minlanadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon.

Zamonaviy sharoitda "Kreativ pedagogika" tomonidan kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish yo'lida quyidagi pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlardan foydalanilmoqda (3-rasm):



**3-rasm. “Kreativ pedagogika” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari**

Quyida mazkur metodlarning mohiyati to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritiladi.

1. **Suhbat metodi**- pedagogik kuzatish chog‘ida talabanning kreativlikka oid bilimlarini boyitish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub’ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.

Suhbat individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida talabalarning kreativlik imkoniyatlari to‘la namoyon bo‘lishiga erishish muhim.

**Сухбатнинг самарали кечишини таъминловчи шартлар:**

- 1) мақсаддан келиб чиққан ҳолда суҳбат учун белгиланувчи саволларнинг мазмуни аниқлаш, саволлар ўртасидаги мантиқийлик ва изчилликни таъминлаш;
- 2) суҳбат жойи ва вақтини аниқ белгилаш;
- 3) суҳбат иштирокчиларининг сонини аниқлаштириш;
- 4) суҳбатдош тўғрисида аввалдан муайян маълумотларга эга бўлиш;
- 5) суҳбатдош билан самимий муносабатда бўлиш;
- 6) суҳбатдошнинг ўз фикрларини эркин ва батафсил айти олиши учун шароит яратиш;
- 7) саволларнинг аниқ, қисқа ва равшан берилишига эришиш;
- 8) олинган маълумотларни ўз вақтида таҳлил қилиш

2. **Pedagogik tahlil.** Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan shaxs tomonidan kreativlik sifatleri, imkoniyatlari va malakalarining o‘zlashtirish darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, pedagog tomonidan ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

3. **Pedagogik-psixologik tashxis metodlari.** Bu kabi metodlar shaxsning kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalariga egaligini tashxislash hamda baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalariga egaligini tashxislashda o'nlab metodlar qo'llanilmoqda. Ular orasida bir guruh metodlar amaliy jihatdan samarali bo'lib, ular rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Gauenaning "Zahiraviy model", Slosson testi, Vekslerov shkalasi. Vekslerov shkalasi ("WPPSI" testi), boshlang'ich maktablar uchun mo'ljallangan. Stanford testi hamda Torrens testlari (jumladan, "Tugallanmagan rasmlar" testi) shular jumlasidandir.

4. **Pedagogik tajriba** (lot. "eksperiment" – "tajriba qilib ko'rish") metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Pedagogik tajribaning quyidagi turlari mavjud (4-rasm).



4-расм. Педагогик тажриба турлари

Pedagogik tajribalarni amalga oshirishda asosiy e'tibor ularning samarali kechishiga qaratiladi. Bunda esa bir qator shartlarni inobatga olish lozim. Ya'ni:

**Pedagogik tajriba samaradorligini ta'minlovchi shartlar:**

- tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- tadqiqot ilmiy farazining puxya asoslanishi;
- tadqiqot obyektlari va usullarining tog'ri tanlanishi;
- tajriba o'tkazilish vaqti va davomiyligining aniqlanishi;
- zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
- tajriba ma'lumotlarini umulashtirish, tahlil qilish va natijalarini qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

5. **Anketa** (fr. “tekshirish”) metodi yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Metod tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi.

**Anketa samaradorligini ta’minlovchi shartlar:**

- 1) savollar muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) savollar yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;
- 3) savollar o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) savollarga to‘la javob qaytarilishi uchun yetarlicha vaqt ajratilishi kerak;
- 5) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylanmasligi zarur;
- 6) javoblar muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Savollarga javoblar, odatda, yozma shaklda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketalar quyidagicha bo‘ladi:

1) ochiq savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar)ga ega;

2) yopiq savollar (“ha”, “yo‘q”, “ijobiy”, “salbiy” va h.k.)

6. **Pedagogik kuzatish metodini** qo‘llashda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq tahlil qilinadi. PK murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, shaxsda kreativlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

**Pedagogik kuzatuvni tashkil etishga qo‘yiladigan shartlar:**

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
- xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

7. **Pedagogik kvalimetriya** ta'lim sifatini nazorat qilish va samarali boshqarish maqsadida qo'llaniladi. Bunda turli darajadagi testlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish (keyslarni yechish) asosida shaxsning kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyatni tashkil eta olish ko'nikmalariga egaligi, ularning darajasi o'rganiladi hamda baholanadi.

8. **Bola (talaba)lar ijodini o'rganish metodi** talabalarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma'lum fan sohalari bo'yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – ikki varaqli kundalik, insho, yozma ish, kichik esse, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari, pedagogik amaliyot hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metod ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

**Bola (talaba)lar ijodini o'rganishda:**

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) tanlovlar;
- 3) maktab ko'rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar va h.z.larning natijalarini tahlil qilish, samaradorligini baholash orqali shaxsning muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlari va amaliy faoliyat ko'nikmalariga egaliklari baholanadi.

9. **Ekspert baholash metodi** zamonaviy sharoitda deyarli barcha sohalarda olib boriladigan tajribalar jarayonida qo'llaniladigan va keng ommalashgan ilmiy-ta'lim metodlardan biri sanaladi.

Ko'p holatlarda shaxsda kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyat ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash psixolog, pedagog va bevosita kreativlikka dahldor sohalarning vakillari – malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi. Ammo ta'lim jarayonida hamkorlik ta'limi tamoyillariga muvofiq talabalarning o'rtasida ham ularning o'quv topshiriqlarini bajarishga nisbatan kreativ yondashuvlarining samaradorligini baholash maqsadida ekspert guruhi shakllantirilishi ham mumkin. Bu guruh talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy mahsulotlar va ularning sifatini baholaydi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda ta'lim va tarbiya jarayonlarining sifatli, samarali tashkil etilishi ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Mazkur zaruriyatning qondirilishi pedagoglarning yuqori darajada kasbiy kompetentlik, mahorat va malakalarga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Pedagoglarning ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvlari talabalarda ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish

faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, talabalarning mutaxassis sifatida kreativ sifat, ijodkorlik ko'nikma, malakalarini faol o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitni yaratadi. "Kreativ pedagogika" fanining asoslari talabalar va pedagoglarda kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyat ko'rsatish malakalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Kreativlik tushunchasini izohlab bering.
2. Shaxning kreativligi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Pedagogik kreativlik haqida gapiring.
4. Kreativ pedagogika faninin maqsadi haqida gapiring.
5. Kreativ pedagogikaning obykti va predmeti haqida ma'lumot bering.
6. Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida gapirib bering.
7. Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari qaysilar?
8. Kreativ pedagogikaning bugungi kundagi ahamiyati qanday?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
5. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003

### **1.2. Kreativlik muammosiga zamonaviy yondashuvlar.**

*Kreativ pedagogika fanini o'rganishga nazariy va eksperimental yondashuvlar. Kreativlik muammosi. Xorij olimlari (P.Torrens, Gilford)ning olib borgan ilmiy tadqiqotlari. Kreativlikni aniqlash testlari.*

Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan

qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbqiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrens 4ta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.

3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

- Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

“Kreativlik yuqumli xususiyatga egadir; kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har

qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin.

Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bo'g'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak pedagoglarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi".

### **Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish**

Bo'lajak pedagoglarni...	<ul style="list-style-type: none"> <li>- qiziqarli;</li> <li>- murakkab vazifalar;</li> <li>- aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash</li> </ul>
Bo'lajak pedagoglarga...	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish;</li> <li>- bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish;</li> <li>- kreativ fikirlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish;</li> <li>- "qutqarib" qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish</li> </ul>
Bo'lajak pedagoglarni...	<ul style="list-style-type: none"> <li>- suhbatlar orqali rag'batlantirish;</li> <li>- konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash;</li> <li>- yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish</li> </ul>
Bo'lajak pedagoglar...	<ul style="list-style-type: none"> <li>- o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari;</li> <li>- guruhda ishlay olishlari;</li> <li>- hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikirlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish</li> </ul>

Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi va bu esa pedagogikaning yangi innovatsion yo'nalishi ya'ni kreativ pedagogikaga murojaat qilishga imkoniyat yaratadi.

Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko'rib chiqiladi.

Doimiy o'zgarib turadigan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi inson ontogenezing butun davri - tug'ilishdan to umrining oxirigacha davomiylik, uzluksizlik va qamrab olishni talab qiladi.

Mahalliy pedagogikada shaxsning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida uning kasbiy va ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar deyarli yo'q. An'anaviy professional tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning birlashuvi sifatida aniqlanadi. Bu faoliyatni o'zlashtirish jarayonida tajribaning shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'lishini anglatadi.

Ijodiy faoliyat tajribasini o'rganish masalasi umuman ko'tarilmaydi.

Ingliz psixologi E.P.Torrens kreativlikning quyidagi jihatlarini ilgari surgan:

- muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- taxminlarni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammoni hal qilishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan sezgirlikni ifodalash.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial — ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi. Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon — natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa subyekt — shartlilik tavsifidan foydalanadi.

J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:

- potensial kreativlik;

- faoliyatdagi kreativlik .

Potensial kreativlik- N.M Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individiumning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy subyektiv shartidir.

Faoliyatdagi kreativlik - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individiumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim subyektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (subyekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi. V.A. Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka taqlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

Kreativlikni rivojlantirish ta'lim va faoliyat jarayonida zarur hisoblanadi. "Kreativlik" konsepsiyasi va atamasi XX asrning oxiridan boshlab qo'llanila boshlandi. Xorijiy olimlardan L.Terson, J.Gilford, B.Gizelin, S.Mednik, V.Smit, P.Torrens, k.Teylor, X.Trik, D.Halpern va boshqalar bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borganlar.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalarini ko'rish mumkin.

Kreativlikni o'rganish bo'yicha Rossiyada A.M.Matyushkin, A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy, V.N.Drujinin kabi olimlar ish olib borgan bo'lsalar, O'zbekistonda B.R.Qodirov, E.G'oziyevlarni tilga olib o'tish mumkin.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik-o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik-shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebayl(1989 y.)ning yondashuvi

nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir.

Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.).

Psixologik adabiyotlarda intellekt va kreativlik haqida 3 xil nazariyalar mavjudligini uchratish mumkin. Birinchi nazariya vakillari D.Veksler, G.Ayzenk, L.Termen, R.Stenbrglar intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarning birligi deb ifodalaganlar. Ya’ni intellekt kreativlikning yuqori bosqichi sifatida baholaganlar. G.Ayzenk kreativlikni qobiliyatning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida ta’riflangan. Ya’ni kreativlik intellektning yuqori bo‘lishi bilan belgilanishi ta’kidlab o‘tilgan.

Ikkinchi nazariyada esa, intellekt va kreativlikning bir-biriga bog‘liq emasligini tadqiqotlarda o‘rganishgan. Kreativlik-bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o‘zgartirishidir. Dj.Gilford kreativlik va intellektni qarama-qarshi qo‘yib, o‘z nazariyasini konvergent va divergent tafakkur sifatida ajratadi. Konvergent tafakkur masalani yechishda mavjud barcha vositalarni tahlil qilib, ulardan yagona maqbulini tanlashdir. Konvergent tafakkur intellekt asosida quriladi. Divergent tafakkur- masalani yechishning turli variantlarini yaratishdan iborat tafakkur turi. Divergent tafakkur- kreativlik asosida quriladi. Bundan kelib chiqadiki, intellekt va kreativlik umumiy ko‘rinishdagi ikki xil qobiliyatlar bo‘lib, ularni ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog‘lash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularning cheksiz yangi modelini yaratishdir. Intellekt esa o‘sha ma’lumotni real amaliyotda qo‘llashga va atrof-muhitga moslashishga yordam beradigan murakkab jarayon<sup>2</sup>.

Uchinchi nazariya egalari intellekt va kreativlik o‘zaro uzviy bog‘langan ikki xil faktor deb qarashgan. A.Maslou va nazariyachilar ijodiy qobiliyatni tan olishmagan. Ijodiy faollik shaxsda qobiliyatga qaraganda, ba’zi shaxsiy xususiyatlarni (qiziqish, tavakkalchilik) shakllantiradi. Lekin bu faollikning namoyon bo‘lishi uchun shaxsda yuqori darajadagi intellektual qobiliyat mavjud bo‘lishi lozim. Ularning fikricha, quyi intellektga ega bo‘lgan kishi hech qanday kreativlikka ega bo‘lmaydi deb qarashgan<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта / Дж.Гилфорд // психология мышления в 2 т. / под.общ.ред. А.М.Матюшкина. –М.:Просвещение, 1965. –Т1.

<sup>3</sup> Маслоу А.Г Мотивация и личность.-СПб, 1999.

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, xazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.) Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Yuqoridagi bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Kreativlik (lot.,ing. “create”- yaratish, “creative”-yaratuvchi, ijodkor)-individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarining mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi<sup>4</sup>.

So‘nggi yillarda kreativlik L.N.Alekseeva, A.N.Vinogradov, I.N.Semenov, T.A.Rebekova, N.V.Kipiani, V.R.Pyatrusis va boshqalar tomonidan faol o‘rganilmoqda.

Tadqiqotchilar Getzels va Jekson, Wallach va Kogan bolalar bilan ishlash uchun ijodiy testlarni ishlab chiqdilar. Biroq, ularda kreativlikning ilmiy asoslangan mezonlari yo‘q.

Shaxsning o‘ziga xosligini aniqlash uchun L.M. Chesselning sinovlari ma'lumlik darajasi juda kam. Biroq, L.M.Chessel testda o‘ziga xoslik mezonlarini taklif qilmaydi, bu esa uni psixodiagnostika amaliyotida qo‘llashni qiyinlashtiradi.

---

<sup>4</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving).- Alexandria-Virginia, USA: ASCD,2014.

Chet ellik psixologlar R.L.Bednar va S.A.Parker tomonidan ijodkorlik darajasini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, testlardan foydalangan holda ijodiy faoliyatni tavsiflovchi ko'rsatkichlarda jiddiy o'zgarishlar kuzatilmagan.

Yuqorida olib borilgan barcha eksperimental tadqiqotlar jarayonida insonning professional kamolot davrida uning o'zini ijodiy namoyon qilish xususiyatlari aniqlandi. Ijodiy kamolot davrida shaxsning ijodiy va kasbiy rivojlanishi va o'zini-o'zi rivojlantirishni belgilovchi real imkoniyatlari o'rganildi.

Kreativlik va shaxsning ijodiy yetuklik dinamikasini individual, guruhviy va jamoaviy shaklda olib borilgan monitoring tadqiqotlari o'rganilayotgan shaxsning ijodiy moyilligini eksperimental ravishda tashxislash imkonini berdi.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadli);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kretiv layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kreativ maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo'nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'z faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Qolaversa, kreativ kompetentlik negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativlik bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ kompetentligi an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik kompetentlikka ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyon etishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi holatlar so'z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

- Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

- Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- Talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

- Mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;

- Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tadbiiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

### **Nazorat savollari:**

1. Pol torrens tomonidan aniqlangan kreativlik ko'nikmalari haqida gapiring.
2. Kreativlikni shakllantirish muammosi haqida gapiring.
3. J. Gilford tomonidan ko'rsatib o'tilgan kreativlikni tavsiflaydigan individual qobiliyatlarni sanab bering.
4. Potensial kreativlik nima?

5. Faoliyatdagi kreativlik nima?
6. Kreativlikni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida aytib bering.
7. Intellekt va kreativlik haqida gapiring.
8. Pedagogning kreativ kompetentligi nimalarga bog'liq deb o'ylaysiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
5. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003

### **1.3. Kreativlik o'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim xususiyati sifatida.**

*Pedagoglarning kreativlik sifatлари. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari. Pedagoglar kreativ imkoniyatining tarkibiy asoslari.*

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va integratsiyalashuvini, kasbiy ishni bajarishning individual uslublari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o'zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kreativ pedagogika - bu ijodiy ta'lim fani va san'atidir. Kreativ pedagogika o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, kelajagini yaratuvchisi bo'lishga o'rgatadi. Kreativ pedagogika, har qanday fanga, xoh matematika, xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo'lsin, qo'llanilish mumkin.

Kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida

ifodalanadi; Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni yengishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyatsizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo'ladi. Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinatsiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinatsiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyati va ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur.

Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda qatnashishni o'rganadilar. Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari, rolli o'yinlar qo'llaniladi.

Kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Kreativlikni rivojlantirishning bosh maqsadi bu o'quvchilarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Buning uchun biz talaba erishgan rivojlanish darajasiga emas, balki bir oz oldinroq qadam tashlab, uning fikrlash qobiliyatidan biroz yuqoriroq bo'lgan talablarni qo'yishimiz kerak. [5] Shuningdek kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:

1. Talabalarni turli yo'nalishlarda fikrlashga o'rgatish;
2. Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o'rgatish;
3. Aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantirish.
4. Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o'rgatish;
5. Tez o'zgaruvchan dunyoda yanada samarali hayot va moslashish uchun zarur bo'lgan fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.

Shu bilan birgalikda pedagogik kreativlikni rivojlantirish sharti o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirishdir. Ushbu tamoyillar quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Har bir talabaning g'oyasini yuqori baholash, bu barcha g'oyalar va javoblarni ijobiy mustahkamlash, xatodan tanish narsaga yangicha qarash imkoniyati sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

2. O'zaro ishonch, psixologik xavfsizlik muhitini yaratish.

3. Tanlash va qaror qabul qilishda mustaqillikni ta'minlash.

Kreativ salohiyatga ega o'qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo'ladi:

- Kreativ fikrlashi kengayadi;

- Tadqiqot ko'nikmalarini yaxshi egallaydi;

- Pedagogika yoki maxsus fan yutuqlaridan hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;

- Professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan ijodiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Kreativ fikrlaydigan o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, u axborotchi emas, balki o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiruvchi (koordinator), boshqaruvchi (menejer), muloqot tashkilotchisi, maslahatchisi bo'lishi kerak. O'qituvchi bilimlarni o'zlashtirishning eng samarali usullarini izlashni qo'llab-quvvatlaydi va boshqaradi, qiziqarli kashfiyotlarni rag'batlantiradi, muvaffaqiyatsiz urinishlarni tahlil qiladi, o'quvchilarni mag'lubiyat va g'alabalarni amalga oshirishga undaydi.

Demak, kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sinfda maqsadli ravishda yaratilgan ijodiy tarbiyaviy muhitga bog'liq bo'lishi mumkin; Talabalar ijodining eng samarali rivojlanishi ijodiy ta'limning uzluksiz tizimi sharoitida maqsadli, har tomonlama pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali ta'minlanadi. Bu va boshqa masalalarni ishlab chiqish bilan fundamental amaliy pedagogika sohasi sifatida kreativ pedagogika shug'ullanishi lozim. Shuningdek nostandart fikrlovchi, qiyin vaziyatlarda xotirjam, muammoning yechimini topishda bir tomonlama emas, turli tomonlama yondashadigan salohiyatli mutaxassislarni yetishtirishdan iborat.

#### **O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning 4 bosqichini belgilash mumkin:**

1- bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar ko'chiriladi;

2- bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi;

3-bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi;

4-bosqichda esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

Kreativlik mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, kreativ tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomarev, S.Yu.Stepanov, T.V. Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan. D.B. Bogoyavlenskaya ishlarida

ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko'rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

- rag'batlantirishning samarali yoki sustkashlik bosqichi. Shaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;

- intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish, oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;

- intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib qoladi.

Rag'batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

Erkin va faol fikrlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchining kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi zamon pedagogikasi yuqori malakali pedagogik kadrlarga ehtiyoj sezadi. Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga kreativ yondashishni talab qiladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilash, hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Pedagog o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ kompetentligi ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentlikka ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog kreativ faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga kreativ yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash

keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O'qituvchilar darslarda bo'lajak pedagoglarning erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi.

“Kreativlik darslarida bo'lajak pedagoglar birgina “to'g'ri” javobni izlash o'rniga o'zlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rtaga tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalar kreativ bo'ladi. Talabalar “Aqliy hujum” metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Bo'lajak pedagoglarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qo'yib yuborish ularda kreativ va hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday, “Qo'rquv hissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; xavotir kreativlikning xizmatkoridir”. Bo'lajak pedagoglarni yo'naltirish, o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchilar bo'lajak pedagoglarni manbalar bilan ta'minlash, maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning progress va muvafaqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs bo'lajak pedagoglari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqтира oladilar (m:ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni yechish, yangilik yaratish va kashf etish)”.

Kreativ kompetentlikka ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning kreativ kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:

Maqsadli-motivli yondashuv (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi);

Mazmunli yondashuv (o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi);

Tezkor-faoliyatli yondashuv (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi);

Refleksiv-baholash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi);

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik kompetentligini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- kreativ fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Kasbiy kompetentli o'qituvchi birinchidan, o'quv-tarbiya jarayonida kreativ ta'lim oluvchilarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ikkinchidan, o'z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi.

Oliy ta'lim tizimiga kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Jumladan, «bilimli» yondashuvda ta'lim maqsadi ta'lim oluvchidan har bir fandan alohida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltiradigan bo'lsa, «kompetentli» yondashuvda ta'lim oluvchida fanlar bo'yicha integrallashgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi<sup>5</sup>.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmun jihatidan o'zgartirish nazarda tutiladi. Ma'ruza darslarining muammoli ta'lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg'ulotlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishligi maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlarni tashkil etishda individuallikka ahamiyat qaratish va ular hajmi jihatidan ko'proqni tashkil qilishi kerak.

---

<sup>5</sup> Turdiyeva M. "Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish". - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. - 38-42-b.

### **Nazorat savollari:**

1. Innovatsion faoliyat nima?
2. Kreativlikni rivojlantirishning bosh maqsadi nima?
3. Kreativ kompetentlikka ega pedagog o'zida qanday malakalarni namoyon eta oladi?
4. Pedagog kreativ faoliyatni tashkil etishda nimalarga ahamiyat berish zarur?
5. O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bosqichlari haqida gapiring.
6. Kreativ salohiyatga ega o'qituvchi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O'Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
5. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003

### **1.4. Kreativ kompetensiya mezonlari va darajalari. Pedagogika bakalavrining kreativ kompetensiyasini shakllantirishning yetakchi tendensiyalari, tamoyillari va omillari.**

*Pedagoglar kreativ imkoniyatini ifodalovchi tamoyillar. Kreativlik imkoniyatiga ega pedagoglarda namoyon bo'ladigan malakalar. Pedagoglar kreativ imkoniyatining muhim darajalari. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati darajasini aniqlovchi mezonlar.*

Olimlar kreativlikni shaxsning umumiy qobiliyati sifatida, faoliyat ko'rsatish sohasidan qat'iy nazar, ijodiy mahsuldorlikka katta ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraydilar. Umumiy qobiliyatlar tuzilmasiga intellekt, kreativlik va o'rganuvchanlik-kognitiv jarayonlarning uch tarkibli modeli hisoblanadi. Bunga ko'ra, har qanday kognitiv jarayon o'zida kognitiv tajribani o'zlashtirish, qo'llash va o'zgartirishni mujassamlashtirishi lozim. Tajriba o'zlashtiruvini amalga

o'shiruvchi qobiliyatni o'rganuvchanlik bilan, tajribani qo'llash samaradorligini umumiy intellekt bilan, uni o'zgartirishni kreativlik bilan izohlash mumkin.

Pedagogik texnologiya samaradorligini tadqiq etishda pedagogik tizim tarkibiga pedagogik kuzatuv elementlarining kiritilganligi, ya'ni mazkur ta'lim texnologiyasini amalga oshirish o'quvchilarda muhim jihatlarni shakllantirishga qaratilganligiga e'tibor berildi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi sanaladi:

- ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- bo'lajak pedagoglarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
- innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
- kutiladigan natija<sup>6</sup>.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi(2.1-rasm).

### 2.1-rasm.

#### Pedagog kreativligi namoyon bo'luvchi asosiy shakllar




<sup>6</sup> Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogning kreativlik kompetentligi ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi (2.2-rasm):


### 2.2-rasm. Pedagogning kreativlik kompetentligining ustuvor tamoyillari



Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning kreativ kompetentligi darajasini baholash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning kreativlik kompetentligi darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi (2.3-rasm):

### 2.3-rasm. Pedagogning kreativlik kompetentligi darajasini aniqlovchi mezonlar



Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ kompetentligini uch darajada aniqlash imkonini beradi (2.1-jadval):

### 2.1-jadval.

#### Pedagog kreativ kompetentligining muhim darajalari

№	Darajalar	Daraja xususiyatlari
1.	Yuqori	Talaba atrof-muhitga va hodisalarga katta qiziqish bilan qaraydi. Unga hamma narsa qiziq. U haqiqiy ijodkor. Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyon etib boradi, kreativ jihatdan o'ta faol, izlanuvchan.

2.	<b>O'рта</b>	Ba'zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo'lmasada, ammo namoyon bo'ladi. Kreativ jihatdan bir qadar faol. Aynan shu qiziqishini rivojlanishida yordam berish zarur. Qiziqishi so'nmasligi uchun muhit yaratib turish kerak.
3.	<b>Past</b>	Garchi u yetarli asoslanmagan bo'lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi. Aqli ko'p narsaga yetishi mumkin. Ko'p narsani tez tushunib oladi. Lekin ijodkorlik qobiliyati rivojlanmagan. Uni ijodiyotga qiziqtirish kerak.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirishda ustuvor tamoyillar asosida ish ko'rish aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarini aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko'rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo'ladi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda kreativlik shaxs faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat shaxsning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi.

Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) ularning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) ular tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) ularning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

#### **Nazorat savollari:**

1. Kreativlik tamoyillari haqida gapiring.
2. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi qanday shakllarda namoyon bo'ladi?

3. Pedagogning kreativlik kompetentligini darajasini aniqlovchi mezonlar haqida aytib bering.

4. Bo‘lajak pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishda nimalarga e‘tibor qaratish zarur?

5. Kasbiy faoliyatda kreativlik qay darajada muhim hisoblanadi?

6. O‘qituvchining kreativligi nimalarga bog‘liq hisoblanadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davlatov K., Vorobev A.I., Karimov I. Mehnat va kasb ta‘limi nazariyasi hamda usulikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 320 b.

2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: “Ilm-Ziyo” nashriyoti, 2012 y. 12 b.t.

3. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedagogik oliy ta‘lim muassasalari uchun). – T.: TDPU, 2013 y. 15,25 b.t.

4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va ped mahorat. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 – 176 b.

5. Ashurova S.Yu. Professionalnaya kompetentnost kak ob‘ekt otsenki// Molodoy uchenyy. – 2012. - № 4. – S. 414-417.

6. Alimov N.N. Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash usulikasi (umumkasbiy fanlarni o‘qitish misolida). Ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.– T.: 2009.–233 b.

### **1.5. O‘qituvchi modelining umumiy xususiyatlari. Kreativ kompetensiyani shakllantirishning muallif modeli.**

*Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo‘l va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati.*

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an‘anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, bo‘lajak pedagoglarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat

qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlikni yanada rivojlantiradi.

Kreativ shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va bo'lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturi ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham bo'lajak pedagoglar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar bo'lajak pedagoglarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, o'quv yilining oxirida kelib

bo'lajak pedagoglarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmaydi. Ko'plab bo'lajak pedagoglarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qoladi. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmaydi. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan bo'lajak pedagoglar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi bo'lajak pedagoglar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi bo'lajak pedagoglar uchun hech qanday stimul bermayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lishi mumkin. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil – **kreativlik** sanaladi.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

*O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.*

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Ahloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kretiv layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kreativlik maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo'nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;

## 8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Shunday qilib kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zini faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning **kreativ kompetentligi** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativlik negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

### **Pedagoglarga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari.**

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi? Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;
- 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Bo'lajak pedagoglarning kreativ tafakkurga ega bo'lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog'liq. "To'laqonli kreativlik xarakteriga ega ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga tayanadi.

Shaxs kreativligini rivojlantirish jarayonida “tabaqalashtirish”, “davrlashtirish” tushunchalarining muhim ahamiyat kasb etishi e’tiborni tortadi. Xo’sh, bu ikki tushuncha qanday mazmunni ifodalaydi?

**Tabaqalashtirish** (lot. “diferentia” – “farqlanish”, “darajalanish”) –butunning turli bosqich yoki darajalarga ajratilishi.

**Davrlashtirish** (yunon. “peridos” – “doira bo‘ylab aylanish”) – muayyan hodisaning qandaydir yakunlangan jarayonni qamrab olgan vaqt birliklariga ajratilishi.

Kreativ jihatdan rivojlanishda har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak:

**Kreativlikning rivojlanish davri** – ma’lum kreativlik sifatlarining rivojlanish yakuniga etgan qandaydir vaqt birligi.

**Kreativlikning rivojlanish bosqichi** – muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi.

Shunga ko‘ra ma’lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatlari ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi. Kreativ tafakkurga ega bo‘lajak pedagoglar:

- boshqa bo‘lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi;
- o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi;
- ba’zan mavzu aloqasi yo‘q yoki g‘ayrioddiy savollar beradi;
- yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi;
- g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi;
- muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:

- Ijodiy yo‘nalganlik;
- Mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- Eruditsiya (bilag‘onlik);
- Boy tasavvurga egalik;
- Ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlik;
- O‘z ijodkorligini to‘la-to‘kis namoyish etish;
- Refleksiya qobiliyati;
- Hissiyotga boylik;
- Tavakkal qila olish qobiliyati;
- Tafakkur tezligiga egalik;
- Ichki sezgining rivojlanganligi;
- O‘ziga xos (orginal) g‘oyalarni ilgari sura olish qobiliyati;
- Innovatsion qobiliyatga egalik;
- Yuksak badiiy qadriyatlarga egalik;
- Mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi.

Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo'lishlari zarur:

**Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:**

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar.

Quyida ushbu malakalar guruhlarining mohiyati yoritiladi:

**Bilishga oid (gnostik) malakalar:**

- Bo'lajak pedagoglarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy- psixologik o'ziga xosligini inobatga olgan holda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;

- zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;

- ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;

- bo'lajak pedagoglar tomonidan o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o'zlashtirganlik natijalarini, o'quvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;

- bo'lajak pedagoglarning bilishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo'yicha turli ko'rinishdagi ishlarni olib borish;

- darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to'garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- bo'lajak pedagoglar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;

- bo'lajak pedagoglarda sog'lom turmush kechirishga bo'lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko'nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida turli ko'rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish;

- didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqish;

- ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o'ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o'rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilish;

-o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish

**Loyihalash malakalari:**

- dars yoki tarbiyaviy tadbirlarning loyihalarini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini bosqichma-bosqich yoritish;
- ta'limiy yoki tarbiyaviy faoliyat maqsadini aniq belgilash;
- maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlash;
- o'quv materialining didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini bayon etish;
- o'quv yoki tarbiyaviy xarakterdagi material mazmunini shakllantirish;
- o'quv yoki tarbiyaviy material mazmunini ochib beradigan bir qancha ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro izchillikni ta'minlash;
- bo'lajak pedagoglarni mustaqil fikrlashga rag'batlantiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- dars yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida bajariladigan pedagogik topshiriqlar tizimini aniqlash;
- yangi materialni bayon etishda turli zamonaviy yondashuvlarni qo'llash;
- muayyan izchillikka ega test topshiriqlarini ishlab chiqish;
- bo'lajak pedagoglarning bilim darajasini tashxislash jarayonini asoslash;
- bo'lajak pedagoglar jamoasi hamda alohida talabaning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholash mexanizmin yaratish

**Ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar:**

- alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;
- o'quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;
- o'ziga xos, original o'quv materialini tayyorlash;
- mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;
- o'quv mashg'uloti (dars) va tarbiya tadbir uchun ko'rsatmali qurollar to'plamini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun multimediya materiallarini yaratish;
- o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;
- turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun bo'lajak pedagoglarning faol ishtirokida video roliklar yaratish;
- dars konspektini tayyorlash;

- turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish;

### **Tadqiqotchilik malakalari:**

- ilmiy izlanish olib borish metod va vositalarini tanlash;

- manbalar bilan ishlash (nazariy tahlil, muhim ma'lumotni topish, tezis, vkonspekt, referat, kartoteka bilan ishlash, adabiyotlar ro'yxatini tuzish);

- nashr manbalari va axborot texnologiyalari (internet) materiallari bilan tanishish;

- anketa so'rovini tashkil etish;

- zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash, dolzarbligini asoslash;

- mavjud manbalar asosida muammoning ishlanganlik darajasini o'rganish;

- pedagogik tajriba olib borish metodikasini ishlab chiqish;

- uch (yoki to'rt) bosqichli pedagogik tajribani ilmiy-metodik tashkil etish;

- ilmiy maqola, axborot va hisobot tayyorlash;

- ilmiy maqolalarni nashrga tayyorlash;

- pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish;

- tahlil natijalarini matematik-statistik tahlil qilish;

- statistik tahlil natijalariga ko'ra xulosa chiqarish va ilmiytavsiyalarni ilgari surish;

- pedagogik tajriba natijalarini muhokama qilish (savollar qo'yish, shaxsiy fikrni bildirish, tanqidiy fikrlarni ayta olish, amaliy takliflar berish)

### **Muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari:**

- bo'lajak pedagoglar, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl, metodlardan foydalanish;

- pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabat o'rnatish;

- bo'lajak pedagoglarga ma'lumotlarni yetkazishning samarali yo'l va vositalarini topish;

- topshiriqlar yuzasidan talabning javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish;

- pedagogik jarayonlarda yuzaga keladigan nizolarning oldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;

- jamoa va turli bosqichdagi bo'lajak pedagoglar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash;

- jamoada sog'lom raqobatga asoslangan muhitni qaror toptirish;

- bo'lajak pedagoglarning faoliyatlarini rag'batlantirish;

- talaba javobidagi xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish;

- bo'lajak pedagoglar bilan ta'limiy hamkorlikka erishish

### **Tashkilotchilik malakalari:**

- bo'lajak pedagoglarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish;
- bo'lajak pedagoglarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;
- dars jarayonida vaqtni to'g'ri taqsimlash va rejani samarali bajarish;
- bo'lajak pedagoglar bilan individual ishlarni tashkil etish;
- guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish;
- bo'lajak pedagoglarda ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- bo'lajak pedagoglarga o'quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish;
- o'quvchilarning diqqatini boshqarish;
- bo'lajak pedagoglar o'rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish;
- darslarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish;
- bo'lajak pedagoglarning o'quv faolliklarini oshirish, ularning mustaqilligini ta'minlash;
- kichik guruhlarni shakllantirish asosida topshiriqlar bajarilishini ta'minlash;
- bo'lajak pedagoglar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar ro'yxatini ishlab chiqish.

### **Izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar:**

- o'quv materialini mazmunini bayon qilishda nutqiy izchillikni ta'minlash;
- og'zaki va yozma nutqni bayon qilishda o'zaro izchillikni qaror toptirish;
- bo'lajak pedagoglarning mavjud bilimlari bilan yangi o'zlashtiriladigan bilimlar o'rtasida muayyan izchillikni yuzaga keltirish;
- bo'lajak pedagoglarning mavjud hayotiy qarashlarini yangi g'oyalar bilan boyitish;
- darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda pedagoglarni faol faoliyatga undovchi metodlardan foydalanishda muayyan izchillikka erishish;
- pedagoglar BKM darajasining DTS talablariga muvofiq kelishida ma'lum izchillikka erishish;
- guruh jamoasining ijtimoiy-psixologik holatini o'rganish metodlaridan foydalanishda pedagogik faoliyat izchilligini ta'minlash;
- pedagoglarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholashda doimiy izchillikka erishish

### **Texnik-texnologik malakalar:**

- ta'lim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini tatbiq etish;
- dars jarayoni mazmunini texnologik pasport va texnologiya xarita yordamida yoritish;
- o'quv materialini mazmunini yorituvchi slaydlarni tayyorlash;

- o‘quv mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida tashkil etish;
- ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;
- darslarda proektorni qo‘llay olish;
- o‘quv materiallarini audio va video yozuvlari, taqdimot asosida bayon qilish;
- pedagoglarda o‘quv materialini mustahkamlash va o‘quv topshiriqlarini berishda axborot texnologiyalarini qo‘llash;
- kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- pedagoglarning BKMni baholashni kompyuter asosida tashkil etish;
- pedagoglarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda kompyuter yordamiga tayanish va b.sh.

#### **Nazorat savollari:**

1. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi nimalarga bog‘liq?
2. Pedagoglar kreativligi qanday rivojlantiriladi?
3. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish kerak deb o‘ylaysizmi?
4. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil nima?
5. Tabaqalashtirish nima?
6. Shaxsga xos kreativlik sifatlarini sanab bering.
7. Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlar haqida gapiring.
8. Kreativ tafakkurga ega bo‘lajak pedagoglar qanday sifatlarga ega bo‘ladi?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi” /Monografiya. –T.: ”Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. ”Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. – T.: “Fan”, 2005.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003

## **1.6. Pedagogning o‘quv va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ta‘lim va ma‘naviy-axloqiy rivojlanishi muammolarini hal qilish qobiliyati.**

Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik sifatlarining namoyon bo‘lishi. O‘quv mashg‘ulotlari va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondashish.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta‘limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o‘rta ta‘lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta‘lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta‘minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan:

birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta‘siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;

ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

uchinchidan, o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniy-ko‘ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta‘lim to‘garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda;

to‘rtinchidan, o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeyi va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish tizimi bugungi kun

talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:

Quyidagi ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida

- yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

- yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;

- pedagog xodimlarning qadr-qimmatini va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

- yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;

- yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

- o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash kabi bir qator vazifalar belgilandi va ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida turli xil ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo'yimoqda. Ta'lim muassasasi yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, g'oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirish, yuksak axloqiy fazilatlariga ega qilish, mehnatiga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda pedagoglar muhim rol o'ynaydi. Chunki, ular nafaqat

ta'limiy, balki tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish pedagogning shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Pedagog asosan tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o'ynaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiylik darajasiga bog'liq. Buning uchun pedagog fan yangiliklarini muntazam, egallab borishi bilan o'zining bilimini, ongini oshiradi.

Pedagogning shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagog uchun malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir o'tkazadi. Chunki, pedagog qobiliyati juda ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomala, nazokatlik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil va adolatlik namunasi, alohida nazokat va vazminlik kabi fazilatlarning bo'lishini taqozo qiladi.

Pedagoglardan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmazlik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z muomalasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi.

Pedagogning faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ qobiliyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan voqea va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishni sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim ta'lim muassasalarida yuqori o'zlashtirishga erishish o'quv, didaktik masala sifatida ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi. O'qish jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

O'quv mehnatiga ongli munosabat va unga ma'lumot bilan yondashish hissini tarbiyalash bilimning sifatli bo'lishi bolaning o'qishga bo'lgan intilishiga qiziqishiga ularning harakatchanligiga, diqqatiga faoliyatiga tashabbuskorligiga, mustaqilligiga bog'liqdir. Bunday sifatlarni o'quvchilarda shakllantirishni ularga o'quv mehnatining ijodiy ahamiyati tushuntirish va o'quv mashg'ulotlariga mas'uliyat bilan yondashishni o'quvchilardan talab etish pedagogning faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilardagi o'qish, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o'qishidagi qiyinchiliklarni yengishga, bilim faoliyatini oshirishga qiziquvchanlik va mustaqilligini kamol topishiga olib keladi.

O'qituvchining asosiy vazifasi har bir o'quvchini fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

O'quv mehnati bilan dam olishni to'g'ri tashkil etish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchilar tartibga amal qilishlarini o'qituvchi va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. Shu yo'l bilan ularni muvaffaqiyatli o'qishga, o'quv mehnatida saramjonlikka o'rgatish mumkin.

O'rtoqlariga o'zaro yordam, sinfdan qolish, ikki yillikni va o'qishni tashlab ketish hollarining oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga guruhda do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishiga olib keladi.

Pedagog ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki o'qituvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida boshqa o'qituvchilar bilan bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'quvchilarga nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi.

O'quvchilarni tarbiyalashda jamoadagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega. Ularni bir-biriga ko'rsatadigan o'rnamaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini hosil qiladi.

Pedagog o'quvchilarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul harakat qilishni o'rgatishi lozim.

Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar va ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jarayonini sevishi kerak deydi. O'ziga xos o'quvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta bola-sinf jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p mashaqqatlarga duch keladi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

***Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.***

Yangi davr pedagogikasining asoschilaridan sanalmish Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat asarlarida ta'lim-tarbiya va bu jarayondagi o'qituvchining o'rni va xizmatlari davrning ijtimoiy-siyosiy hayotidan kelib chiqib, o'ziga xos ravishda talqin etilgan. Jumladan, Abdulla Avloniy o'qituvchi faoliyatiga alohida to'xtalib, bolaning fikriy taraqqiyotini oilaga emas, maktabga, muallimlar zimmasiga yuklaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyanan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g'ayratli, bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir", – deydi<sup>7</sup>. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta'rif berib: tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini, ya'ni axloqli, odobli, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi ta'lim-tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo'lsa, ijodiy izlanish o'qish va o'qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchining eng muhim kasbiy sifatlaridan ekanligini uqtiradi. Bu bilan Abdulla Avloniy o'qituvchi faoliyatiga nisbatan akmeologik yondashuvni o'z davri qiyofasida olg'a suradi.

Abdurauf Fitratning asarlarida ham ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor beriladi. Xususan, olim ta'lim-tarbiya jarayoni, ayniqsa, o'qituvchi talabalarning o'zaro muloqotini tashkil etish, olib borishda eskicha qolipdan chiqib yangi islohotlar qilish kerakligi, buning uchun esa, mudarrisning (eski maktab o'qituvchisi) nodonligiga chek qo'yib, ularni o'qitish usullarini talabalarning individual qobiliyatlariga qarab tubdan o'zgartirish zaruratini bayon qiladi<sup>8</sup>.

Pedagogning faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgan. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Pedagogning amaliy faoliyati faqat yarimi tarbiya texnologiyaga asoslanganligini nazarda tutish kerak. Uning ikkinchi yarimi bu san'at. Shu tufayli pedagogga qo'yiladigan dastlabki talab – unda pedagogik qobiliyat mavjud bo'lishi kerak. Pedagogning qobiliyati – bu o'quvchilar bilan ishlashga ishtiyoq, bolalarga nisbatan muhabbat, ular bilan bo'lgan munosabatdan mamnun bo'lish bilan ifoda bo'ladigan shaxsning sifatleri. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va

---

<sup>7</sup> Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi. 1992. – 160 b

<sup>8</sup> Pedagogika tarixi / Tuzuvchilar: K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Hasanov. – T.: O'qituvchi, 1996.

rivojlanadi. Qobiliyat uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblanadi. Qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson asab tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur.

Tarbiyaviy faoliyatning samarali bo'lishi uchun pedagogda qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim:

- tashkiliy – o'quvchilarni jipslashtirish, ularni band qilish, vazifalar bo'lib berish, ishni rejalashtirish, qilingan ishlarni jamlash mahoratiga namoyon bo'ladi;

- didaktikaga oid – o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, hissiy istaklarni rag'batlantirish, o'quv bilimni orttirish, faollashtirish mahoratida namoyon bo'ladi;

- perseptiv – tarbiyalanuvchilarning ma'naviy dunyosiga singib, ularning emosional holatini baholash, ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratida namoyon bo'ladi;

- suggestiv – o'quvchilarga emosional ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi;

- kelajakni ko'ra bilish - o'z harakatlarning oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchilarda qanday fazilatlarni ro'yobga chiqarish lozimligini oldindan ayta olish mahoratida namoyon bo'ladi;

- tadqiqiy - pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni o'rganish va obyektiv baholash mahoratida namoyon bo'ladi.

Pedagog doimo faol, kreativ shaxsdir. U o'quvchilarning kundalik hayotini uyushtiruvchi hamdir. O'quvchilarda qiziqish uyg'otish, ularni o'zi bilan yetaklash faqat yuksak irodali insonning qo'lidan keladi. Auditoriya, o'quvchilar jamoasi kabi murakkab organizmlarga pedagogik rahbarlik qilishi pedagogdan topqir, zehni o'tkir, har qanday vaziyatni mustaqil yechishga doim tayyor bo'lishligini talab qiladi. Unga kasbiy jihatdan kerakli xislatlardan biri – sabr-toqat va dadillikdir. O'qituvchining birdan sarosimaga tushgani, o'z nochorligini o'quvchilar sezmasligi lozim. Shuni hamisha esda tutish kerakki, pedagog o'z harakati va axloqini nazorat qilish, hech qachon arzimagan narsalarga asabiylashmasligi kerak.

Muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning birinchi sharti - bu pedagogning talabchanligi. Dastlab talabni u o'ziga qo'yishi kerak, chunki o'zingda bo'lmaganini o'zgan talab qila olmaysan. Talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi ham bo'lishi lozim. Pedagogik jarayonlarda yuz berib turadigan keskinliklarni bartaraf etish uchun tarbiyachiga hazil-mutoyiba tuyg'usi yordam beradi. Uning ko'lamida tayyor hazil, maqol, yaxshi, do'stona piching – ijobiy emosional holat yaratishga imkon berib, o'quvchilarni o'ziga jalb qildiradi.

Shaxs axloqini karakterlaydigan belgilardan biri – mas'uliyatdir. Pedagogning mas'uliyati-tarbiyachining faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. Tarbiyachi zimmasiga bolaning shaxs sifatida har tomonlama

kamol toptirish mas'uliyati yuklanadi. U o'quvchiga chuqur nazariy bilim berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga u o'quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatni o'z vaqtida payqab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o'stirishi darkor.

Yuqori aytib o'tilgan fazilatlar pedagogning tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishda va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi haqida gapiring.
2. Pedagogning kommunikativ qobiliyati haqida gapiring.
3. O'qituvchining asosiy vazifasi nimadan iborat?
4. O'quvchilarni tarbiyalashda jamoaning ta'siri qanday?
5. Pedagogning faoliyatida e'tibor nimaga qaratiladi?
6. Pedagogning tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishda qanday fazilatlar bo'lishi zarur deb o'ylaysiz?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
5. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003

## **2-BOB. KREATIV PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

---

**Bobning qisqacha mazmuni:** *kreativ psixologik-pedagogik texnologiyalar-ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashni amalga oshirishning yangi ta'lim paradigmasi sifatida, kreativlikni muammolar va nostandart vazifalarni hal qilish jarayoni sifatida tushunish, o'quv jarayonini tashkil etishning progressiv ta'lim modellari, kreativ texnologiyalar: evristik usullar va ijodiy usullar, kreativlikni rivojlantirishning psixologik usullari, art-kreativ metodlar.*

**Tayanch iboralar:** *kreativ psixologik-pedagogik texnologiyalar, nostandart topshiriqlar, progressiv ta'lim modellari, kreativ texnologiyalar, kreativlikni aniqlovchi psixologik testlar, art-kreativ metodlar.*

### **2.1. Kreativ psixologik-pedagogik texnologiyalar-ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashni amalga oshirishning yangi ta'lim paradigmasi sifatida.**

*O'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga kreativ yondashish. Kreativ psixologik-pedagogik texnologiyalarni tayyorlash. O'quv fanlari bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini tayyorlashga kreativ yondashish.*

Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Ta'lim muassasasida kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Ta'lim muassasasi yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar,

tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab quvvatlaydi.

O‘quvchining qiziquvchanligi ta‘lim jarayonida qo‘l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta‘lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta‘limning yangi shakllari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu, ayniqsa, ta‘lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o‘quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o‘z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Boshqa ko‘nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo‘naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba‘zi o‘qituvchilarga o‘quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o‘quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo‘layotgandek ko‘rinadi. Aslida, o‘quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko‘r-ko‘rona yodlash o‘rniga tadqiqot va ixtironi qo‘llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Qisqa qilib aytganda, rahbarning vazifasi – ishtirokchilarning faol qatnashishlari, o‘ylashlariga, ularni qo‘zg‘ata olishga ijodiy, qulay sharoit yaratishdan iborat.

Umuman olganda evristik metodlar va usullar nima? Nimani izlab topish kerak, shu izlanishda nima ma‘lum? O‘quv – biluv davrida ishtirokchilarga berilgan topshiriq, masala, muammo yechimini topa oladimi, topilgan analoglardan qaerda foydalanish mumkin? – degan savollarga javob ola bilishlari kerak.

Evristik ta‘limni o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali sifat va samaradorlikni oshirishda nimalarga erishish mumkin:

- evristika asosidagi ta‘lim o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, o‘quvchining o‘zi shaxsan izlanishi, o‘rganishi, o‘ylantirishiga asoslangan, unda izlanish, qidirish, topish orqali ongli o‘zlashtirishga olib keladi.

O'quvchini ijodiy fikrlashga, muammolarning yechimini topish orqali intellektual salohiyatini oshiradi. O'quv fanidagi tayyor mazmun, ma'lumotlarni olib qolmay, uni individual ishlashi orqali o'quv materialini olish va o'z kuchiga suyanib ish tutish ko'nikma va malakasi shakllanadi va boshqalar.

#### **Nazorat savollar.**

1. Evristik ta'limning predmeti, mazmun va maqsadi?
2. Evristik savollar metodi nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Ko'p o'lchovli – matritsa metodi haqida nimalarni bilasiz?
4. Empotik metod deganda nimani tushunasiz?
5. Sinetik metod nimani o'rganadi?
6. Intuitsiya haqida gapiring.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
5. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003

### **2.5. Kreativlikni rivojlantirishning psixologik usullari.**

*Pedagogning kreativlik sifatlarini aniqlovchi psixologik testlar.  
Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi psixologik metodlar.*

Zamonaviy oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik amaliyot darajasi yetarli darajada emas. Aksariyat o'qituvchilarning kelajakdagi kasbiy va pedagogik faoliyatda ijodkorlik ish tizimida, o'quvchilarning algoritmik harakatlariga qaratilgan stereotipli usul va uslublar ustunlik qiladi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlaydigan pedagogik oliy ta'lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri bu bo'lg'usi o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini oshirish, bo'lg'usi o'qituvchilarning

kasbiy-pedagogik faoliyatda ijodkorlik elementlarini qo'llashga tayyorlashdan iboratdir.

Oliy ta'limda o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda kreativlikni pedagogik jihatlari Yu.P. Azarov, O.V. Akimova, R.S. Gurevich, I.A. Zyazyun, N.V. Kichuk, N.V. Kuzmina, O. N. Kutsevol, L.M.Luzina, M.D. Nikandrov, N.G. Nichkalo, M.M. Potashnik, S.A. Sysoeva, M.I. Smetanskiy, G.S.Tarasenko, A.V. Temchenko va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Pedagog kreativligi deganda, biz ta'lim jarayonida paydo bo'ladigan pedagogik vazifalarni o'qituvchining har xil yechimlar uchun o'ziga xos, noyob, innovatsion g'oyalarni yaratish qobiliyatini belgilaydigan yaxlit sifatini tushunamiz. Bu o'qituvchining pedagogik muammoni o'z vaqtida ko'rish, uni hal qilishning kreativ yo'llarini ishlab chiqishi va ma'lum shablon bo'yicha emas, balki o'ziga xos bo'lgan usulda harakat qilishi bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu o'quv jarayonini o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, mayllari va intilishlarini hisobga olgan holda uning shaxsiyatiga yo'naltirishdir. Ya'ni, o'quvchilarga kasbiy pedagogik ta'limni, avvalo, shaxsning individual fazilatlariga yo'naltirilgan kreativ o'qitishning har xil yondashuvlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchining ijodiy salohiyatini shakllantirishga o'qitishning noan'anaviy shakllari va uslublarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, turli xil psixologik-pedagogik mashg'ulotlarni tashkil etish yordam beradi. Bunda kasbiy va pedagogik vazifalar, ilmiy konferensiyalarda, tanlovlarda, oliy ta'lim muammolari bo'yicha munozaralarda va boshqa o'quv va ilmiy-uslubiy faoliyatda faol ishtirok etishi tashkil etiladi. Bunda, o'qituvchi shaxsining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi tasdiqlashi va o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratiladi.

Avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy fazilatlarini, shu jumladan pedagogik OTMLarda pedagogika yo'nalishida kreativlikni rivojlanishni rag'batlantiradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni tavsiflaylik. Masalan, E.P.Torrens shaxsning ijodiy fikrlashi va kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi shart-sharoitlarni ajratgan: ijodiy qobiliyatlar va ijodiy motivatsiyaning mavjudligi. Shu bilan birga, agar bu 4 ta omil bir-biriga to'g'ri keladigan bo'lsa, ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajadagi namoyon bo'lishi mumkin:

- 1) aniq belgilangan va qat'iy nazoratdan farq qiladigan to'liq bo'lmagan holatlar;
- 2) kelgusi faoliyat uchun strategiya va vositalarni yaratish va ishlab chiqish;
- 3) mas'uliyat va mustaqillikni rag'batlantirish;
- 4) mustaqil ishlanmalar umumlashmalar, kuzatuvlarga e'tibor berish.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashlarini shakllantirish jarayonida, muammoli ta'lim texnologiyalaridan o'quv, ilmiy va kasbiy pedagogik muammolarni shakllantirish va hal qilishni ta'minlashda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning barcha tashkiliy shakllari va usullarini bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish: ma'ruzalar, amaliy va seminarlar, mustaqil va yakka tartibdagi ishlarga bo'ysundirish zarur.

Ma'lumki, muammoli ma'ruza talabalarining o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini uyg'otadi, qo'shimcha ma'lumot izlashda faollik va mustaqillikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan taklif qilingan muammolarni hal qilish jarayonida ular tomonidan mustaqil qo'shimcha bilimlar olinadi. Muammoli ma'ruzalarga quyidagilar kiradi: ma'ruza-dialog, ma'ruza-munozara, ma'ruza-munozara va boshqalar.

Muammoli amaliy va seminar mashg'ulotlari turli shakllarda o'tkazilishi mumkin, masalan: mavzuning individual masalalari bo'yicha munozaralar shaklida; munozara, debat (qo'shimcha o'quv materialini mustaqil o'rganishni talab qiladigan) shaklida; barcha o'quvchilarning diqqatini faollashtiradigan va dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadigan tezislarini himoya qilish shaklida; kelajakdagi o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradigan kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilish shaklida; mutaxassislarni tayyorlashning faol usuli bo'lgan ishbilarmonlik o'yinlari shaklida chunki ular tadqiqot, o'qitish va ta'limning ayrim shakllaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan amaliy mashg'ulotlar loyiha usuli asosida tashkil etilishi kerak. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash va innovatsion ta'limni tashkil etishga oid dolzarb muammolarni hal etish, ilmiy va amaliy izlanishlar olib borishga qaratilgan loyiha mavzulari talabalar tomonidan kichik guruhlarda yoki individual o'rganilib, loyihani tugatgandan so'ng, har bir talaba yoki kichik guruh o'z loyiha ishlarini muvofiq ravishda taqdimot orqali himoya qilib turli savollariga javob berishi kabi, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy ishlarining ushbu shakli, bizning fikrimizcha, eng maqbul va foydalidir. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarning, shu jumladan o'qitishda ijodiy tafakkurini shakllantirish jarayoni maqsadga muvofiq ravishda o'zaro ta'sir qilishdan, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikdan, o'quv jarayonini tashkil qilishning zarur shakllari va usullaridan foydalangan holda maxsus tashkil etish, talabalarining kasbiy ijodiy tafakkurini shakllantirishga hissa qo'shadigan usullarning ayrim guruhlarini ajratish mumkin, ular quyidagicha tasniflanadi:

1. Ta'lim faoliyatini tashkil etish usullari bo'yicha: didaktik vazifalarni belgilashni bosqichma-bosqich tashkil etish, ularni hal etish usullarini tanlash, diagnostika va olingan natijalarni baholash bilan tavsiflanadigan strukturaviy va mantiqiy usullar; o'quv-kognitiv harakatlarning muayyan algoritmlarini ishlab chiqish va mashg'ulotlar davomida odatdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan trening usullari (bular testlar va amaliy vazifalar bo'lishi mumkin, ularning tarkibiga ijodkorlik elementlarni qo'shish maqsadga muvofiq); ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadigan o'yin usullari (ta'lim vazifalari o'yin tarkibiga kiritilgan bo'lsa) va boshqalar.

2. Shakllantiruvchi yo'nalish bo'yicha, o'z navbatida: a) ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish usullari: murakkablashtiruvchi sharoitlardan foydalanish usullari, ya'ni: vaqtni cheklash usuli, to'satdan taqiqlash usuli, yangi variantlar usuli, axborot yetishmasligi usuli, inkor etish usuli; ijodiy vazifalarni guruhli yechish usullari: Delphi usuli, "qora quti" usuli, kundalik usuli; jamoaviy ijodiy izlanishlarni rag'batlantirish usullari: aqliy hujum, sinektika va boshqa usullar. b) o'zlarining kasbiy, ijodiy va o'quv-bilish faoliyati tajribasi orqali tajribani shakllantirishga hissa qo'shadigan va ijobiy munosabatni yaratadigan hissiy ta'sir usullari: bunga hissiy munosabat, rag'batlantirish, tarbiyaviy va hissiy o'yin, muvaffaqiyat holatini yaratish, ijodiy vazifalarni erkin tanlash, muqobil yechimlarni tanlash motivatsiyasi kabilar kiradi.

Albatta, kasbiy- ijodiy fikrlashni rivojlantirishga va bo'lajak o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirishga yordam beradigan usullarni tasniflashda boshqa ko'plab yondashuvlar ham mavjud. Ammo bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar ham mavjud.

S.D. Smirnovning fikriga ko'ra, bunga quyidagilar kiradi:

- vaqt chegarasi; yoki tashvish kuchayishi;
- o'rganish uchun kuchli yoki kuchsiz motivatsiya;
- tezda yechim topishga intilish, bu odatda, uni bajarish vaqtini qisqartirish orqali topshiriqlar sifatini pasayishiga olib keladi;
- noto'g'ri hal qilish usulini qo'zg'atadigan vazifa shartlarini shakllantirish usuli;

- oldingi muvaffaqiyatsizliklar va boshqalarning sabablari tufayli ularning qobiliyatlariga ishonch yetishmasligi.

Taniqli kreativlik tadqiqotchisi G. Ouch, kreativ fikrlashga to'sqinlik qiluvchi omillarni "aqliy qulflar", ya'ni hayot va kasbiy vaziyatlarni hal qilishga ijodiy yondoshishga to'sqinlik qiladigan ongning kuchli munosabati deb ataydi. Uning fikriga ko'ra, bunga quyidagilar kiradi: o'z-o'ziga ishonchsizlik; boshqalardan ko'ra yomonroq ko'rinishdan qo'rqish; barcha hayotiy va ta'limiy vaziyatlarni mantiq nuqtai nazaridan baholash odati; har doim amaliy bo'lishga intilish;

umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilish odati; faqat bitta to'g'ri javobni belgilash; noaniqlikdan qochishga moyillik; umuman va boshqalarga xato qilish mumkin emas degan ong osti fikrlash.

Biz bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligi bosqichida evristik o'qitish usullaridan keng foydalanish kerak, deb hisoblaydigan tadqiqotchilarning fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz, bu o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishni faol ravishda rag'batlantiradi va ularning ijodiy fazilatlarini shakllantiradi. Fikrimizcha, bo'lajak o'qituvchilarni oliy ta'lim sharoitida kasbiy tayyorgarlikda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan usullarning asosiylarini tahlil qilaylik.

Masalan, "Aglutinatsiya" usuli, bu o'quvchilarning haqiqiy dunyoda mos kelmaydigan narsalarning fazilatlarini, xususiyatlarini yoki qismlarini, masalan, issiq qor, hajm bo'shlig'i, shirin tuz, qora yorug'lik va boshqalarni birlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan. Ushbu metodikadan foydalanish kelajakdagi o'qituvchilarda fantaziya, xayolot, jasur g'oyalar va farazlarni ilgari surish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Faol ma'ruzalar va amaliy (seminar) mashg'ulotlar paytida ushbu metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Aqliy hujum metodining uning asosiy vazifasi ishtirokchilardan eng ko'p g'oyalarni to'plashdir. Bu guruhli muammolarni hal qilishning operatsion usuli bo'lib, uning ishtirokchilariga ijodiy faoliyatni rag'batlantirish uni hal qilishning iloji boricha ko'proq variantlarini ifoda etish taklif etiladi. Shundan so'ng, bildirilgan fikrlarning umumiy sonidan amaliyotda foydalanish mumkin bo'lgan eng muvaffaqiyatli bo'lganlar tanlanadi. Ushbu metodikadan har bir talaba muammoni yechish uchun o'z g'oyasini ilgari surish imkoniyatiga ega bo'lganda, kichik guruhlarda mavzu bo'yicha amaliy ishlarda foydalanish maqsadga muvofiq va foydalidir, algoritmni yaratish va uni dasturiy ta'minotini amalga oshirish mumkin.

Loyihalar usuli, o'quv jarayonini o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va individual fazilatlarini hisobga olgan holda o'quv faoliyatini kuchaytirishga yo'naltirilgan metoddir. Ta'limdagi loyiha usulining maqsadi shaxsiyat rivojlanishidan o'ziga xos o'tish deb hisoblanadi, o'z-o'zini rivojlantirish, uning intellektual va ijodiy salohiyatini ochib beradi va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida loyiha faoliyatini tashkil qilishning mumkin bo'lgan shakllari va usullari quyidagilar bo'lishi mumkin: rejalashtirilgan laboratoriya ishlari davomida kichik guruhlarda yoki alohida loyihalarni bajarish; muayyan mavzular bo'yicha o'quv materialini ijodiy topshiriq yoki loyiha shaklida yakuniy takrorlash shaklida birlashtirish (testlarni bajarish, mavzu bo'yicha tezislar yozish).

Delphi usuli so'rovlar, intervyular, aqliy hujum va shunga o'xshash narsalar orqali to'g'ri yechimni izlashda bir guruh tadqiqotchilar fikrlarining maksimal

darajada kelishuviga erishishga imkon beradi. Ushbu usul qarama-qarshi qarashlarni tashuvchilar o'rtasida ochiq to'qnashuvlar ehtimolini istisno qiladi, chunki mutaxassislar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish mumkin emas. Uni ilmiy-amaliy Internet-konferensiyalarni o'tkazishda yoki tegishli forumlarda muammolarni muhokama qilishda ishlatilishi mumkin.

Har qanday shakldagi darslar paytida foydalanish mumkin bo'lgan o'yin metodlaridan foydalanish mumkin. Masalan, talabalar uchun amaliy va seminar mashg'ulotlarida, ayniqsa, mavzuga oid krossvordlar, rebuslar, yechish yoki tuzish; kompyuter rasmlari tanlovlari; muayyan mavzularda viktorinalar o'tkazishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning oliy ta'lim bosqichida foydalanish maqsadga muvofiq bo'lgan o'quv topshiriqlarining ayrim misollarini ko'rib chiqamiz.

Masalan, kompyuterda siz bunday vazifalarni taklif qilishingiz mumkin: ekranda o'rganilayotgan mavzuga oid tarixiy ma'lumotlarning bir qismi ko'rsatiladi Talabalardan mavzuning nimaga mo'ljallanganligini aniqlashni so'raydi. Yoki ma'lum bir ma'lumotda ataylab kiritilgan xatolarni topishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, hozirgi bosqichda bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirishning turli xil usullari mavjud. Pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantirishda har bir oliy ta'lim o'qituvchisi o'zi uchun talabalarni o'qitishning har qanday evristik shakllari va usullarini tanlashi mumkin. Shu bilan birga, ularni qo'llash natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kreativlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. Oliy ta'limda o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda kreativlikni pedagogik jihatlarida haqida nimalarni bilasiz?
2. Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchining ijodiy salohiyatini shakllantirishda nimalarg ahamiyat qaratish zarur?
3. Kreativlikni rivojlanishni rag'batlantiradigan qanday psixologik-pedagogik sharoitlar mavjud bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?
4. Loyiha usuli mazmunini tushuntirib bering.
5. "Agglutinatsiya" usuli haqida gapiring.
6. O'yin mashg'ulotlarining amaliy ahamiyati haqida gapiring.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. ”Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. – T.: “Fan”, 2005.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003

## **2.6. Art-kreativ metodlar.**

*Pedagoglarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan vosita va texnologiyalar. Art-kreativ metodlar asosida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash. O‘quv topshiriqlari va ularning turlari.*

Bugungi kunda pedagogika fanida ijodkorlik, kreativ fikrlash, yangicha yondashuvlar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy o‘qituvchi — nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy namunasi, yangiliklar tashuvchisi, o‘quvchini mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi rahnamodir. Bunday rolni muvaffaqiyatli bajarish uchun pedagogda kreativlik sifatleri shakllangan bo‘lishi lozim.

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘qituvchidan yuqori kasbiy, metodik, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni talab qiladi. Ayniqsa, XXI asrda ta’lim oluvchilarning tafakkur doirasi keng, mustaqil fikrlovchi, yangilikka intiluvchi shaxs sifatida shakllanishi uchun pedagogning kreativlik darajasi muhim omilga aylanmoqda.

Kreativlik — bu muammolarga noodatiy yondashish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va innovatsion fikrlash qobiliyatidir. Pedagogik kreativlik esa o‘qituvchining yangilik yaratish, dars jarayoniga individual va ijodiy yondashuvni kiritish qobiliyatidir. Bu sifat o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va o‘rganishga nisbatan motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik kreativlik — bu o‘qituvchining yangilik yaratish, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish, o‘zgacha yondashuv orqali o‘quv jarayonini boyitish qobiliyatidir. Yuqoridagi texnologiyalar va vositalar orqali o‘qituvchilar o‘zlarining ijodiy salohiyatini izchil rivojlantirishlari, zamonaviy ta’limga moslashishlari va innovatsion muhit yaratishlari mumkin.

Kreativlik o‘ziga xos pedagogik kompetensiya bo‘lib, quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

- dars jarayoniga yangicha yondashuv;
- o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo‘naltirish;
- shaxsiy pedagogik uslubni shakllantirish;

- yangilikka ochiqlik va doimiy o‘shishga intilish.

Ijodkor pedagog nafaqat o‘quvchilarning bilim olishini tashkil etadi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga, tanqidiy va tizimli fikrlashiga, mustaqil qaror qabul qilishiga zamin yaratadi.

**Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish** zamonaviy ta’limda muhim o‘rin tutadi. Chunki kreativ (ijodkor) pedagog — bu yangilikka ochiq, muammolarga noodatiy yechim topa oladigan, o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil qila oladigan shaxsdir. Quyida pedagoglarda kreativlikni samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan **vosita va texnologiyalar** sifatida belgilaymiz:

**1. Interaktiv o‘qitish texnologiyalari.** Bu texnologiyalar pedagog va o‘quvchi o‘rtasida faol muloqotni ta’minlab, ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

- **Klaster, akvarium, insert, fikrlar hujumi, rol o‘ynash** — bu metodlar pedagogni yangicha fikrlashga undaydi.
- **Muammoli o‘qitish** — pedagogni har bir darsga yangicha yondashishga majbur qiladi.

**2. Raqamli texnologiyalar va onlayn vositalar.** Zamonaviy raqamli vositalar ijodiy yondashuvni faollashtiradi.

- **Kahoot, Mentimeter, Padlet, Canva, Jamboard** — o‘qituvchiga yangicha dars dizayn qilish imkonini beradi.
- **AI vositalar** (ChatGPT kabi) — darslar uchun kreativ g‘oyalar, materiallar yaratishda ko‘mak beradi.

**3. Loyihalash texnologiyasi (Project-Based Learning).** Bu texnologiyada pedagog o‘quvchilar bilan birga loyiha ishlab chiqadi, bu esa ijodiy fikrlashni talab qiladi.

- Muammoli mavzularni tanlash
- O‘quvchilarni yo‘naltirish, ularga maslahat berish
- Natijani baholashda kreativ mezonlardan foydalanish

**4. Kritik va divergent fikrlashni rivojlantiruvchi texnikalar. Ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun:**

- **SCAMPER usuli** (o‘zgartirish, birlashtirish, almashtirish va h.k.)
- **Mind mapping** (aqliy xaritalar)
- **6 Thinking Hats** (De Bononing oltita shlyapa metodi)

Bu metodlar o‘qituvchini darsga yangicha yondashishga undaydi.

**5. Drama va teatr elementlaridan foydalanish.** O‘qituvchilar o‘z darslarini sahna ko‘rinishida tashkil etish orqali:

- Emosional ifoda, improvizatsiya va til boyligini oshiradi
- O‘quvchilar bilan yaqin kommunikatsiya o‘rnatadi
- O‘zining kreativ yondashuvini rivojlantiradi

**6. Refleksiya va tahlil.** Pedagog har bir darsdan so‘ng o‘z faoliyatini tahlil qilsa, yangi g‘oyalar paydo bo‘ladi:

- “Nima yaxshi bo‘ldi?”, “Nimani o‘zgartirish mumkin?” degan savollar orqali ijodiy yangilanish yuz beradi.
- **Portfoliolar yuritish** — pedagogik yutuqlar va g‘oyalarni to‘plab borish ijodiy rivojlanishni kuchaytiradi.

**7. Kasbiy hamkorlik va o‘quvchilar bilan birga ijod qilish.**

- **Fikrlash maktablari, metodik birlashmalar, kasbiy tarmoqlar** orqali boshqa ijodkor pedagoglar bilan fikr almashish.
- O‘quvchilar bilan **ko‘rgazmalar, mualliflik loyihalarida** birga ishlash — o‘qituvchining kreativ salohiyatini oshiradi.

Zamonaviy ta‘lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan, emotsional, estetik va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shulardan biri — **art-kreativ metodlar** bo‘lib, bu yondashuv ta‘lim jarayonida san‘atning turli yo‘nalishlari orqali bilim berishni nazarda tutadi. Bunday metodlar o‘quvchilarning darsga nisbatan qiziqishini oshirish, tafakkurini kengaytirish, estetik didini shakllantirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi ta‘limda o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan ehtiyoji, individual o‘rganish uslubi va estetik sezgirligi e‘tiborga olinishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, art-kreativ yondashuvlar ta‘lim jarayonini emotsional, didaktik va estetik jihatdan boyitib, samaradorligini oshiradi. Art-kreativ metodlar — bu san‘at vositalaridan (musika, teatr, rasm, dizayn, adabiyot, drammatizatsiya va h.k.) foydalangan holda o‘quvchilarning ongiga ta‘sir qilishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvdir.

"Art" so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “san‘at”, "kreativ" esa "yaratuvchanlik", "ijodiylik" ma‘nosini anglatadi. Pedagogikada **art-kreativ metodlar** — bu o‘quv jarayonida tasviriy san‘at, musiqiy asarlar, teatr elementlari, adabiyot, rasm, pantomima, drammatizatsiya kabi estetik vositalar orqali ta‘lim maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan metodlardir.

Ular quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:

- **Estetik sezgirlikni rivojlantirish**
- **Ijodiy tafakkurni rag‘batlantirish**
- **San‘at orqali anglash va ifoda qilish**
- **Emotsional-intellektual faollikni kuchaytirish**

Bu metodlar Vygotskiy, Dewey, Gardner, Montessori kabi mutafakkirlarning g‘oyalari tayanadi.

Art-kreativ metodlar psixologiya, pedagogika va san‘atshunoslikning tutash nuqtasida rivojlangan bo‘lib, quyidagi g‘oyalarga tayanadi:

• **Estetik tarbiya** – shaxsda go‘zallikni ko‘ra bilish, uni yaratish va idrok etish qobiliyatini shakllantirish.

• **Emotsional-intellektual faollik** – o‘quvchilarning hissiy jihatdan darsga jalb qilinishi orqali bilimni chuqurroq o‘zlashtirish.

• **Kreativ tafakkur** – muammoni noodatiy, san‘atga xos ifoda vositalari orqali hal qilish.

Shu orqali darslar o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, o‘quvchining qiziqishlarini hisobga oluvchi, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi tus oladi.

#### **Art-kreativ metodlarning turlari**

1. **Rassomlik metodlari** – rasm chizish, kollaj yaratish, kolorit orqali tushunchani ifodalash.

2. **Dramatizatsiya** – voqeani sahnalashtirish, rolli o‘yin, pantomima.

3. **Musiqiy ekspressiya** – musiqa orqali holat, kayfiyat yoki mavzuni yoritish.

4. **Literar kreativlik** – she‘r, esse, hikoya, monologlar yozish.

5. **Vizual metaforalar** – timsollar va belgilar orqali tushunchani ifodalash (masalan, “baxt”ni rasmda ifodalash).

#### **Ta‘lim jarayonida art-kreativ metodlarning afzalliklari**

• **O‘quvchilarni emotsional jihatdan jalb qiladi.**

• **Shaxsiy yondashuvga asoslanadi:** har bir o‘quvchining qobiliyatlari e‘tiborga olinadi.

• **Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi:** shablonlardan chiqib ketish, yangilik yaratish odatini shakllantiradi.

• **Estetik tarbiya beradi:** go‘zallikni ko‘rish, yaratish va qadrlashni o‘rgatadi.

• **Interaktiv dars muhitini yaratadi:** faollik va ishtirok kuchayadi.

#### **Pedagog quyidagi uchun metodik tavsiyalar beriladi:**

• Har bir darsda ijodiy topshiriqqa kamida 10-15 daqiqa ajratish foydalidir.

• San‘at elementlari mavzuga bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak.

• Har bir o‘quvchining hissasini e‘tiborsiz qoldirmaslik lozim.

• O‘quvchilar ishlarini baholashda ijodiy yondashuvlar va o‘zaro baholash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Art-kreativ metodlar — ta‘limni zamonaviylashtirish, o‘quvchilarning emotsional-intellektual faolligini oshirish, shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantirishda kuchli vositadir. Bunday metodlarga asoslangan didaktik ishlanmalar darsni estetik, hissiy, ijodiy jihatdan boyitadi va o‘qituvchi hamda o‘quvchilar o‘rtasida samarali hamkorlikni ta‘minlaydi. Ularni tizimli qo‘llash orqali shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim maqsadlariga erishish mumkin.

Art-kreativ metodlar zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular nafaqat o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning emotsional, ijtimoiy va estetik kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Bugungi kunda har bir pedagog darsini san'at va kreativlik bilan uyg'unlashtirib, o'z fanini o'quvchilar qalbiga yaqinlashtirishi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. Kreativlik va pedagogik kreativlik haqida gapiring.
2. Pedagoglarda kreativlikni samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan vosita va texnologiyalar to'g'risida aytib bering.
3. Art-kreativ metodlar nima?
4. Art-kreativ metodlarning turlari haqida gapiring.
5. Art-kreativ metodlarning samaradorligi haqida aytib bering.
6. Art-kreativ metodlarning ijobiy sususiyatlari va kamchiliklari nimalardan iborat?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xalimov Q. "Pedagogik texnologiyalar asoslari". – Toshkent: TDPU, 2022.
2. Nazarova M. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari". – Toshkent: Fan, 2021.
3. De Bono E. "Six Thinking Hats". – London: Penguin, 2017.
4. Anderson L.W., Krathwohl D.R. "A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing". – New York: Longman, 2001.

## MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI

**1-TOPSHIRIQ.** “**Teamwork**” metodi orqali talabalar kichik guruhlarda jamoaviy ish bajarishadi. Ushbu metod orqali talabalar kreativ kompetentligining *innovatsion* komponenti rivojlanishiga erishiladi (Umumiy ajratiladigan vaqt 20 daqiqa.).

1. Talabalar 4 guruhga bo‘linadi.
2. Guruhlarning har biriga quyidagi loyiha topshiriqlari beriladi:

**1-guruh** – “O‘z-o‘zini rivojlantirish” dasturi;

**2-guruh** – “Namunaviy dars” loyihasi;

**3-guruh** – “Ma’naviy-ma’rifiy tadbir” loyihasi;

**4-guruh** – “Pedagogning kasbiy rivojlanish” modeli loyihasi.

3. Berilgan mavzular asosida guruh ishtirokchilari loyiha tayyorlaydilar.

4. Topshiriq yakunida har bir guruh taqdimot orqali loyihani namoyish qilishadi.

### **2-TOPSHIRIQ.** “**Antiqua topishmoq**” metodi

**Maqsad:** Ishtirokchilarning topqirligini oshirish, kreativlikni rivojlantirish, faollashtirish (*Umumiy ajratiladigan vaqt 10 daqiqa.*). Ushbu metod ishtirokchilar kreativ kompetentligining *faoliyatli* komponentini yuqori darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kerakli resurslar:** 4 ta kartochka va 1 ta ruchka.

**O‘tkazilish tartibi:** Oldindan 4 ta yozuvli kartochkalar tayyorlab olinadi.

1-kartochkaga “*Individual qaror qabul qilish*”;

2-kartochkaga “*Motivatsion muhit yaratish*”;

3-kartochkaga “*Talabalarning qiziqishlarini o‘rganish*”;

4-kartochkaga “*Talabalarning jamoaviy ishlarini tashkil etish*” so‘zlari yozib qo‘yiladi va kartochkalardagi yozuv ko‘rinmaydigan qilib qog‘oz buklanadi.

Ishtirokchilardan 4 ta o‘zaro teng bo‘lgan kichik guruhlar shakllantiriladi.

Har bir guruhga oldindan tayyorlab qo‘yilgan kartochkalar tarqatiladi va kartochkalarni ochmaslik so‘raladi hamda o‘qituvchi tomonidan shart

tushuntiriladi: - ishtirokchilarga tarqatilgan kartochkalarda pedagogik faoliyatni tashkil etish bo'yicha holatlar loyihasi nomi yozilgan bo'lib, ishtirokchilar kartochkalarni o'z guruhlar bilan ochib ko'radilar va ushbu vaziyatni qanday qilib tashkillash va aktyorlik mahoratini ishga solib, namoyish etish mumkinligini kelishib oladilar. Ishtirokchilar kelishib olishlariga **5 daqiqa** vaqt beriladi. So'ngra navbatma-navbat har bir jamoa o'zining holat loyihasini raqib jamoalarga namoyish etadi va ularga shu holat loyihasining nomini topish vazifasi qo'yiladi. Holatlar nomi juda g'ayrioddiy bo'lganligi uchun trener topishmoqni topishga (boshqa jamoalar qiynalgan hollarda) yordam berishi ham mumkin.

### **3-TOPSHIRIQ. “Bu narsa o‘zi emas, u boshqa narsa” metodi**

**Maqsad:** Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish va biror jarayonni namoyish etish orqali (aktyorlik) mahoratini shakllantirish. Biron bir faoliyatni loyihasini yaratish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida qo'llash mumkin. Ushbu metod talabalar kreativ kompetentligining *faoliyatli* komponentini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**Kerakli resurslar:** 1ta marker.

**O'tkazilish tartibi:** berilgan markerdan foydalanib ishtirokchilar (bunda uning o'z funksiyasidan emas, markerdan boshqa funksiyada foydalanib) biror bir harakat, holat yoki faoliyatni (gapirmasdan) ifoda etish orqali ko'rsatib berish so'raladi. Uni nima ekanligini esa boshqa ishtirokchilar topishi kerak bo'ladi.

Har bir ishtirokchi boshqalar oldiga chiqib marker yordamida biror narsani ifodalashi va ko'rsatishi lozim. Har bir ishtirokchining shunday o'ziga xos “topishmog‘ini” topishga **2 daqiqa vaqt** ajratish yetarli.

Bunda markerning o'rniga trener boshqa bir predmetlardan ham foydalanishi mumkin.

**Misol uchun:** qog'oz, ruchka, chizg'ich va hk.

### **4-TOPSHIRIQ. “Operatsiya” metodi**

**Vazifa:** Nima bo'lishi mumkinligini o'ylab ko'ring...

**Misol uchun:**

1. “... dars boshlangan vaqtda elektr toki o'chdi.”

2. "... dars jarayonida kichik guruhlar o'rtasida konflikt yuzaga keldi."
3. "... o'quvchilar jamoasi mashg'ulot mavzusiga qiziqish bildirmadi."
4. "... auditoriyada dars o'tish uchun noqulay sharoit mavjud edi, ya'ni xona juda issiq edi."

Ishtirokchilar taklif qilingan iboralarning har biriga qiziqarli javob berishi kerak.

### **5-TOPSHIRIQ. "Aqlbovar qilmaydigan vaziyat" mashqi**

**Vazifa:** Ishtirokchilarga istalgan xayoliy holatda aks ettirish taklif etiladi. Ularning vazifasi bunday vaziyat yuzaga kelganligini tasavvur qilish va uning oqibatlarini taklif qilishdir. Ushbu mashq 3-5 kishidan iborat guruhlarda amalga oshiriladi, buning uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

#### **Ushbu metod uchun holatlarning ba'zi misollari:**

1. *Guruhda turli yoshdagi talabalar ta'lim oladi.*
2. *O'qituvchi talabalarni dars jarayonida baholamaydi.*
3. *Mashg'ulotini o'tish uchun auditoriya topilmadi.*
4. *O'quvchilar o'qituvchilar o'rniga dars o'tadi.*

Taklif qilinayotgan g'oyalarga guruhlar tomonidan fikrlar beriladi. Takliflarning kreativ ekanligi hisobga olinadi. Eng ko'p g'oya bergan guruhlar g'olib hisoblanadi. Bu metod asosida talabalar kreativ kompetentligining *innovatsion* komponenti rivojlanadi.

**6-TOPSHIRIQ.** Talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va mavzu bo'yicha olingan ma'lumotlarni qayta takrorlash va ijodkorligini rivojlantirish va hamkorlikda bajarish uchun "**Find word**" metodidan foydalanamiz (Umumiy ajratilgan vaqt 10 daqiqa). Ushbu metod asosida talabalar kreativ kompetentligining *kommunikativ* va *innovatsion* komponentlari rivojlanishiga erishiladi.

1. Talabalar 3 ta guruhga bo'linadi.
2. Har bir guruhga 3 tadan kartochka tarqatiladi.
3. Har bir guruh kartochkada berilgan anogrammalarni yechib ortiqcha so'zni topishi kerak.

1-guruh uchun:

1. EKYS
2. YOLIHA
3. FADTAR
4. EMTOD

1. IKTOB
2. LAQAM
3. FADTAR
4. SALKTER

1. SUHBAT
2. RATBIYA
3. TEMOD
4. SOMON

2-guruh uchun:

1. NISF
2. RADS
3. LA'TIM
4. RATBIYA

1. DEPAGOG
2. VUQO'CHI
3. LATABA
4. SHAMG'ULOT

1. MISENAR
2. TERINNET
3. LETEFON
4. PYUKOMTER

3-guruh uchun:

1. DAJVAL
2. XESMA
3. GRADIAMMA
4. ZAKUTISH

1. HUSBAT
2. ZAKUTISH
3. KEANTA
4. BOAXROT

1. TERINVYU
2. RADSLIK
3. YEKPROTER
4. JAMMUA

4. Topshiriqni eng tez bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

## 7-TOPSHIRIQ. "Noodatiy fikrlaymiz" mashqi

**Maqsad:** kreativlik, noodatiy fikrlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

**O'tkazilish tartibi:** ishtirokchilardan bir nechta kichik guruhlar shakllantiriladi shundan so'ng har bir guruhga bittadan ixtiyoriy predmet beriladi (ya'ni nomi aytiladi).

**Misol uchun:**



- bakalashka



- qopqoq



- qoshiq



- g'isht



- gugurt cho'pi



- qog'oz bo'lagi

Har bir guruhga bittadan predmet aytilgach, guruhlarga **2-3 daqiqa vaqt** beriladi shu vaqt davomida guruhlar kelishgan holda yuqorida berilgan predmetni o'z funksiyasidan tashqari yana nima vazifalarda hamda qanday hollarda ishlatish mumkinligi haqida o'ylab ko'rishlari kerak va berilgan predmetning qo'shimcha funksiyalari ro'yxatini tuzishga harakat qilishlari kerak.

Bunda oldindan aytib o'tish joiz, eng uzun ro'yxatni tuzgan jamoa g'olib deb topiladi. O'yindan xulosa shuki, har bir ishga, ayniqsa muammoli vaziyatga yondashishda iloji boricha ijodkorlik, noodatiy fikrlash va mantiqiy tafakkurni ishga solib yondashish, odatiy yo'llar orqali ish tutishdan ko'ra samaraliroq natija beradi. Hamda bunday yondoshuvning yana bir foydali tarafi shundaki, inson qiyin vaziyatga tushib qolganida, ortiqcha o'yga tolmaydi va zo'riqishdan holi bo'ladi hamda optimistlarcha ish tutadi.

### **8-TOPSHIRIQ. "Ha, yo'q, ehtimol" metodi.**

**1.** Har bir talaba ushbu metodni individual bajaradi. Talabalar kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun ushbu metoddan foydalanish samarali natija beradi.

**Mashqning mohiyati** - bu teskari ma'noga ega bo'lgan so'zlar bilan iboralar ixtiro qilish.

**Masalan, qattiq gul, yuqori mitti, kvadrat to'p, sovuq qaynoq suv** va shunga o'xshash narsalar.

**Mitti baland** bo'lolmasligini barchamiz tushunamiz, lekin ijodiy fikrlash g'ayrioddiy, nostandart narsa bilan tanishish ko'pchilik uchun qiziq hisoblanadi.

**Topshiriq:** Talabalar tomonidan teskari ma'noga ega bo'lgan so'zlar bilan iboralar kasblarga moslanadi.

Misol uchun:

- "Hech qachon uchmagan uchuvchi";

- "Ukoldan qo'rqadigan shifokor"....

- ..... pedagog;

- ..... tarbiyachi;

- ..... .....

### **9-TOPSHIRIQ. "Zanjir" metodi**

**Maqsad:** Ishtirokchilarning tezkorligini oshirish, fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish, yangi so'z boyligini ko'paytirish.

#### **O'tkazilish tartibi:**

1. Talabalar 4 ta guruhga bo'linadi.

2. Har bir guruhga kartochka tarqatiladi.

3. Har bir guruh kartochkada berilgan anogrammalarda berilgan 1-so'zning oxiri, 2-so'zning boshi bo'ladigan qo'shimchani topishi kerak.

*1-guruh:*

1. Tar/.../ratish
2. Tele/.../etika
3. Klas/.../gamoq
4. Tiz/.../lo

*2-guruh:*

1. Loyi/.../mkorlik
2. O'y/.../novatsiya
3. Re/.../dval
4. Ma'ru/.../mon

*3-guruh:*

1. Sotsi/.../umiy
2. Yaq/.../diq
3. Maj/.../llim
4. Anke/.../rmoq

4-guruh:

1. Muay/.../gi
2. Profay/.../vistika
3. Aso/.../mo
4. Mustah/.../chilik

4. Topshiriqni 1-bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

### Og'zaki ijodiy fikrlash (P. Torrens metodikasi)

#### A) variant

(1-7-topshiriqlar)

**Ko'rsatma.** Sizga barcha qiziqarli topshiriqlarni bajarishingizni maslahat beraman. O'z tasavvuringizda turli yo'llar bilan yangi g'oyalar va fikrlarni yarating. Har bir topshiriqni bajarayotganda, boshqa hech kim topa olmaydigan yangi va g'ayrioddiy narsa o'ylab topishga harakat qiling. Hikoya-rasm qiziqarli bo'lishi uchun fikringizni to'ldirishga harakat qiling.

Har bir vazifa vaqt bilan cheklangan, shuning uchun yaxshi fikrlashga harakat qilib ko'ring. Tez ishlang, ammo vaqtingizni nazorat qiling. Harakat qiling, g'oyalar ustida o'ylang. Agar siz jamoadan oldin vazifani bajarib bo'lsangiz, vaqt tugaguncha va keyingi ishni boshlash uchun hammaga ruxsat berilguncha kuting. Agar sizda ajratilgan vaqt oralig'ida vazifa bajarishga vaqt yetmasa, umumiy buyruq bilan keyingisiga o'ting. Savollaringiz bo'lsa, jimgina qo'lingizni ko'taring va men sizning oldingizga kelib, kerakli tushuntirishlarni beraman.

Birinchi uchta vazifa siz ko'rgan quyidagi rasm bilan bog'liq bo'ladi.

(1-rasm).



Ushbu vazifalar sizga ba'zi voqealar, ularning sabablari va oqibatlari haqida xabar beradi va siz taxminiy savollar berishingiz mumkin. Rasmga qarang va

o‘ylab ko‘ring: nima bo‘ldi? Ishonch bilan aytganda, bu rasmga qarab nima qilish mumkin? Yana nimani topish kerak, nima bo‘lganini tushuning, nima uchun bu sodir bo‘ldi va qanday tugashi mumkin?

**Vazifa 1. Savollar bering.**

**Ko‘rsatma.** Shu rasm bilan bog‘liq barcha savollarni yozing. Hamma narsani va nima bo‘lganini tushunish uchun zarur bo‘lgan savollar tuzing. Rasmga qarab javob beradigan savollarni bering. Suratni xohlaganingizcha ko‘ring.

**Vazifa 2. Sabablarini toping.**

**Ko‘rsatma.** Rasmda ko‘rsatilgan hodisaning iloji boricha ko‘proq sabablarini topishga harakat qiling va yozing. Siz voqealarni rasmdagi lahzadan oldin yoki sodir bo‘lishi mumkin vaqtda davom ettirishingiz mumkin.

**Vazifa 3. Oqibatlarini taxmin qiling.**

**Ko‘rsatma.** Ushbu rasmda ko‘rsatilgan hodisaning iloji boricha ko‘proq natija va oqibatlarini ko‘rsating. Hodisadan keyingi voqealar yoki uzoq kelajakda nima bo‘lishi mumkinligi haqida yozing.

**Vazifa 4. O‘zgarishlar kiriting.**

**Ko‘rsatma.** Yumshoq o‘yinchoq-filning eskizini ko‘rib turibsiz (2-rasm). Ushbu o‘yinchoq fil bilan o‘ynash, bolalarga yanada qiziqarli bo‘lishi uchun uni qanday o‘zgartirish haqida o‘ylang. Uni o‘zgartirish usullaridan eng qiziqarli va g‘ayrioddiylarni yozing.

(2-rasm).



**Vazifa 5. Foydalanishning g‘ayrioddiy usullarini toping (karton qutilarning).**

**Ko'rsatma.** Ko'p odamlar bo'sh karton qutilarni tashlab yuborishadi, lekin bu qutilardan minglab qiziqarli va g'ayrioddiy usullarda foydalanish mumkin. Iloji boricha foydalanish usullaridan ko'proq noodatiy narsalarni taklif qiling. Fikringizni faqat siz ko'rgan yoki eshitgan narsadan foydalanish yo'llari bilan cheklamang.

#### **Vazifa 6. G'ayrioddiy savollar tuzing.**

**Ko'rsatma.** Ushbu vazifada siz iloji boricha karton qutilarga oid savollar o'ylab topishingiz kerak. Bu savollar ko'proq turli xil javoblarni o'z ichiga olishi va boshqa qutilarga qiziqish uyg'ota olishi kerak. Karton qutilarning xususiyatlari haqida eng noodatiy, odatda, xayolga kelmaydigan savollarni ko'rib chiqishga harakat qiling.

#### **Vazifa 7. Tasavvur qiling.**

**Ko'rsatma.** Rasmda ifodalangan aqlbovar qilmaydigan vaziyatni tasavvur qiling: bulutlarga bog'langan iplar yerga qarab osilgan.

(3-rasm).



Nima bo'ldi? Buning oqibatlarini nimaga olib kelishi mumkinligi haqida o'ylang. Iloji boricha ko'proq taxminlarni ifoda eting. Fikrlaringiz va taxminlaringizni yozing.

## Tasviriy ijodiy fikrlash (P. Torrens metodikasi)

### Tasvirni davom ettirish asosida rasm chizish.

“A,, variant

#### Subtest 1. Rasm chizish (10 daqiqa vaqt ajratiladi)

**Sinov materiallari:** a) rangli qog‘ozdan yasalgan tasvirlar(1-rasm).

Shaklning rangi har qanday rangda bo‘lishi mumkin,

- a) bo‘sh qog‘oz;
- b) yelim;
- c) rangli qalamlar.

(1-rasm).



**Ko‘rsatma.** Sizda rangli qog‘oz shakllari va yelim bor. Har qanday rasmda ushbu tasvir qatnashishi mumkinligini o‘ylab ko‘ring. Mavzu yoki hodisa bo‘lishi mumkin.

Ushbu shaklni bo‘sh varaqqa sizga ma‘qul joyga joylashtirish uchun yelimdan foydalaning va siz tasavvur qilgan rasmni yaratish uchun uni qalam bilan bo‘yang. O‘ylab ko‘rib hech kim qila olmaydigan rasmni yaratishga harakat qiling. Tasviringizni iloji boricha qiziqarli va yangi tafsilotlar va g‘oyalar bilan to‘ldiring.

Chizishni tugatgandan so‘ng, unga nom bering va varaqning pastki qismiga yozing. Bu nomni iloji boricha g‘ayrioddiy qiling. O‘zingiz yaratgan voqeani yaxshiroq aytib berish uchun undan foydalaning.

Boshqalardan farqli o‘laroq, rasm haqida eng murakkab va qiziqarli voqeani yozishni boshlang.

**Izoh.** To‘qqizinchi daqiqada ishtirokchilarni yakunlashlarini eslatib qo‘ying. Rasmning nomi, shuningdek familiyangiz va guruhingizni yozing va imzo qo‘ying.

Muddat- 10 daqiqa tugagandan so'ng, sekundomerni o'chiring va topshiriq bo'yicha ishlashni to'xtating.


**Subtest 2. Chizishni tugating** (10 daqiqa vaqt ajratiladi)

**Sinov materiallari:**

a) oddiy qalam;

b) test shakli turli grafik shakllar tasvirlangan o'nta kvadratdan iborat:

(2-rasm).




**Ko'rsatma.** Ushbu varaqlarda tugallanmagan grafik shakllar chizilgan. Agar ularga chiziqlar qo'shsangiz, siz qiziqarli narsalar yoki rasmlar olasiz. Boshqa hech kim o'ylab topolmaydigan rasmlar yoki hikoyalarni o'ylab ko'rishga harakat qiling. Uni to'liq va qiziqarli qiling, unga yangi g'oyalarni qo'shing. Rasmlarning har biri uchun qiziqarli nomni o'ylab ko'ring va ushbu rasmning pastki qismiga yozing. O'n daqiqadan so'ng ishlashdan to'xtang.

**Subtest 3. Chiziqlar** (10 daqiqa vaqt ajratiladi)

**Ko'rsatma.** Iloji boricha har bir juft chiziqdan ko'proq obyektlar yoki hikoyalar chizmalarini yarating.

(3-rasm).



Ushbu chiziqlar rasmingizning asosiy qismi bo‘lishi kerak. Qalam bilan har bir juftga chiziqlar qo‘shing, shunda rasm tugallanadi. Siz chiziqlar orasiga, chiziqlar ustiga, chiziqlar atrofiga - har qanday joyga chizishingiz mumkin.

Imkon qadar ko‘p narsalar yoki rasmlarni yarating. Ularni iloji boricha qiziqarli qilishga harakat qiling. Har bir rasimga nom qo‘ying. 10 daqiqadan so‘ng, vazifa tugaydi. Agar rasmlar uchun nom yoza olmagan ishtirokchilar bo‘lsa, sinovdan so‘ng darhol ularning ismlarini bilib oling.

## “KREATIV PEDAGOGIKA” FANIDAN GLOSSARIY

<b>Adaptatsiya (ko‘nikish)</b>	Shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir etish, moslashish jarayoni.
<b>Akmeologiya</b>	Kattalarning o‘z-o‘zini mustaqil rivojlanishi, mustaqil bilim egallashi, kasbni takomillashtirish haqidagi fan.
<b>Algoritm lash</b>	Pedagogik texnologiya tarkibiy bo‘laklarini amalga oshirish jarayonining ketma-ketligini belgilash bo‘lib, ko‘zlangan maqsadga erishish kafolatini amalga oshiradi. Odatda, pedagogik texnologiyani loyihalashda oldin uning algoritmi ishlab chiqiladi. Shu algoritmgaga muvofiq holda modullarning o‘zaro joylashuvi tartibi aniqlanadi.
<b>An’anaviy ta’lim</b>	XVII asrda Ya.P.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyoning aksariyat maktablarida eng ko‘p qo‘llanayotgan sinf-dars tizimi.
<b>Aqllilik</b>	Biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.
<b>Bilim</b>	Talabalar tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda ijtimoiy munosabatda zarur bo‘lgan fan asoslarining qonunlari, omillari va tushunchalarini o‘zlashtirish natijalari.
<b>Bilish qobiliyati</b>	Fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir.
<b>Binar dars</b>	Ikki ta’lim beruvchi shaxs (mas: pedagog-professor va yordamchi assistent, nazariyachi va amaliyotchi) tomonidan olib boriladigan dars.
<b>Vosita</b>	Ma’lum o‘qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallari – asbob, qurol va boshqa shu kabilardan foydalanishdir.
<b>Guruhli ta’lim</b>	Bir o‘qituvchi bir necha o‘quvchilar guruhini o‘qitadigan ta’lim. Guruhlar o‘quvchilar soniga qarab kichik (3-6 o‘quvchi) o‘rta (7-15 o‘quvchi) katta (15 dan ortiq o‘quvchi) guruhlarga bo‘linadi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta’lim oluvchilarning yoshiga, ta’lim yo‘nalishiga, ta’lim topshiriqlari va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo‘llash jarayonida yakka va juft bo‘lib ishlash shakllari ham amalga oshiriladi.
<b>Gnostik faoliyat</b>	Pedagogik faoliyatning natijalarini tekshirish va baholash, uning kechishi va samaradorligini tahlil qilish.

<b>Dars</b>	aniq maqsadni ko‘zlab, belgilangan vaqtda ma’lum xususiyatlariga ko‘ra birlashtirilgan ta’lim oluvchilar guruhi bilan o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg‘ulot; ta’lim maqsadlarini amalga oshirish, o‘qitish shakllari, metodlari va vositalari yordamida o‘quv dasturida belgilangan mavzuning o‘zlashtirilishini ta’minlash jarayonining asosiy shakli.
<b>Didaktika</b>	Pedagogikaning tarmog‘i, ta’lim-tarbiya maqsadlari, metodologiyasi, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini o‘rganish va ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.
<b>Diskussiya</b>	O‘quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; muhokama, bahs yuritish.
<b>Idrok</b>	Borliqni odam ongida aks etishidir
<b>Ijodkorlik</b>	Insonning ongli, ma’lum maqsadga yo‘nalgan, harakatchan insoniy faoliyati. SHu yo‘nalishli faoliyati bilan u yaratuvchanlikka, ijodkorlikka moyil bo‘ladi. O‘ziga xos ilgari mavjud bo‘lmagan narsa, predmetlarning yaratuvchisi hisoblanadi.
<b>Ijodkor shaxs</b>	Faoliyat natijasida, yangiliklar yaratishga intiluvchan va imkoniyati bor shaxs.
<b>Ilmiy bilimlar</b>	Voqelikning haqqoniy in’ikosidir
<b>Inversion</b>	(almashtirish) axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rni almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.
<b>Innovatsiya</b>	Yangilanishni, o‘zgarishlarni joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.
<b>Innovator</b>	Yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayonida joriy qiluvchi shaxs.
<b>Iste’dod</b>	Har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatga ega bo‘lgan shaxs.
<b>Integrativ</b>	(yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.
<b>Intellekt</b>	Insonning umuman bilish, tinimsiz izlanish faoliyati fikrlash qobiliyati, tushunish, mulohaza, tafakkuri, aqliy mushohadasi.
<b>Interfaol mashg‘ulot</b>	O‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro faol ishtirok etadigan jarayon

	(o‘zaro faollikda, o‘zaro harakatda, hamkorlikda kechadi).
<b>Interfaol metod</b>	Ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.
<b>Ishchanlik o‘yinlari</b>	Turli vaziyatlarda o‘yin va noto‘g‘ri qilingan reglament qoidalari asosida o‘quv topshiriqlarini imitatsiya qilish orqali bajarish.
<b>Kafolat</b>	Shaxslarga yuklatilgan vazifalarni yaratilgan vositalar, yo‘llar, shart-sharoitlar asosida davlat talablariga (standartlari) mos bajarilishini to‘la ta’minlash.
<b>Kasb –</b>	Muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyat turi. Unga umumiy yoki maxsus ma’lumotlar hamda amaliy tajriba yo‘li bilan erishiladi.
<b>Keys texnologiyasi</b>	O‘quvchilarning mustaqil qarorlar qabul qilishlari, muammoli savollarga to‘g‘ri va haqqoniy javoblar topishlariga qaratilgan, o‘qituvchi kuzatuvchi (eshituvchi) vazifasini bajaradigan ta’lim texnologiyasi.
<b>Kommunikatsiya</b>	Subyektlar orasidagi axborot almashinuvini amalga oshiradigan jarayon.
<b>Kouch</b>	Ta’lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlari uchun yordam ko‘rsatuvchi repititor, instruktor trener.
<b>Kreativ –</b>	Ijodiy.
<b>Kriteriy (mezon) –</b>	Biror hodisaga baho berish uchun yoki biror narsani turkumlash (klassifikatsiya qilish) uchun zarur belgi; baholash va fikrlash uchun o‘lchov.
<b>Kuzatish –</b>	O‘rganish lozim bo‘lgan pedagogik hodisani ma’lum maqsad nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish ob’ektiga oid bo‘lgan aniq dalilli material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi
<b>Kuzatuvchanlik qobiliyati –</b>	Talabaning, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, talaba shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.
<b>Ko‘nikma –</b>	Malakaning tarkibiy qismi bo‘lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda

	o‘z-o‘zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va talabalarda ko‘p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi.
<b>Lider</b>	(ingl. Leader – boshlovchi rahbar) pedagogik jamoada o‘zining shaxsiy sifat, fazilatlari bilan jamoa a‘zolariga o‘z ta‘sirini o‘tkaza oladigan shaxs.
<b>Liderlik</b>	Odamlarni o‘z ketidan ergashtira oladigan, ularni boshqara oladigan qobiliyatli shaxs. Unda rejalash, tashkilotchilik, o‘ziga ergashtira olish, nazorat etish kabi qobiliyatlar rivojlangan bo‘ladi.
<b>Malaka –</b>	Ongli ravishda bajariladigan ishning bir xil mehnati, ko‘p marta takrorlanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy elementidir.
<b>Mazmun</b>	Ilmiy bilimlar yig‘indisi, amalda qo‘llash uchun beriladigan ko‘nikma va malakalar jarayonida o‘quvchilar fikrlash, uylash, mulohaza yuritish orqali amalga oshiriladi.
<b>Masofaviy ta‘lim</b>	Masofalararo audio, video, kompyuter, internet vositalari asosidagi ta‘lim jarayoni.
<b>Mashg‘ulot o‘tkazishning faol shakllari –</b>	Talaba va o‘qituvchi faoliyatining o‘zaro ta‘sir etishini muhokama qilishiga mo‘ljallangan ta‘lim jarayonini tashkil etish shakllari.
<b>Ma‘lumot –</b>	<p>O‘qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, talabada bilim, iqtidor va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilganligi, bilish qobiliyatining o‘sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlari shakllanganligi, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarini qay darajada rivojlanganligini anglatadi. U ikki ma‘noda ishlatilib, ikkisi ham pedagogikaga tegishli:</p> <p>1. Xabar – o‘qitish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishilarning unga talabdor bo‘lganlarga bilim berishi, yetkazishi. Ma‘lum qilish deb, til va ko‘rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirishdir.</p> <p>2. Bilim darajasi. O‘qish, bilish, borliqdan ob‘ektiv mavjud qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yig‘indisi – past ma‘lumotli, o‘rta va yuqori ma‘lumotli va hokazo.</p>
<b>Mahorat -</b>	Turli malakalardan ishonchli, ijodiy ravishda foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va

	kasbiy ta'limning mutloq maqsadidir. Mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi uchun kafolat beruvchi ishonchlilikdir.
<b>Mediapedagog</b>	Zamonaviy axborot informatsion texnologiyalarni o'zlashtirish orqali mediata'limni olib bora olish bilim, malaka va ko'nikmalarini egallagan o'qituvchi.
<b>Mediata'lim</b>	O'quvchilar tomonidan ommaviy kommunikatsiya qonuniyatlari – matbuot, televideniya, radio, video, kino, internet axborotlarini olish, tahlil etish va bilim olishga asoslanadi.
<b>Mimika -</b>	O'z fikri kayfiyati, sezgisini yuz muskullari harakati orqali aks ettirish san'ati.
<b>Mentor</b>	Ustoz, o'qituvchi (yakka va guruhli tartibda).
<b>Motiv</b>	Lotincha so'z bo'lib, "turtki, harakatga keltiruvchi" degan ma'noni bildiradi. O'zining ichki ehtiyojlarini qondirish uchun ichki uyg'onish. O'z maqsadiga etish uchun aniq maqsad sari intilish.
<b>Motivatsiya</b>	O'zini qo'zg'ata olish jarayoni, boshqalarni shaxsiy maqsadlarini qondirish uchun qo'zg'ata olish.
<b>Muallim –</b>	Muayyan fan yuzasidan ta'lim berishga vakolatli, ta'lim-tarbiya bo'yicha oliy, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, pedagogik va psixologik bilim, ko'nikma, malakalarni va talab darajasidagi mahoratni egallagan, ta'lim-tarbiya, usul, vosita uslubi asosida o'z metodikasi, ishlash qobiliyatiga ega ma'naviy yetuk shaxs.
<b>Muammo –</b>	Ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaziyatning, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.
<b>Muammoli vaziyat –</b>	Talabanning ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi.
<b>Muomala -</b>	Yaxshilikka sabab bo'lgan ishlarda mayinlik, shirinso'zlik, yoqimtoylik asosidagi munosabat.
<b>Murakkab malaka -</b>	Kasb mahoratining asosini tashkil etib, bilim, boshlang'ich malaka hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi va ular asosida shakllanadi. Murakkab malaka shakllanishi shaxsda kasb

	mahoratini paydo bo'lishiga imkon yaratadi.
<b>Muhit –</b>	Kishiga ta'sir etadigan tashqi voqelik.
<b>Mustaqil ta'lim</b>	O'z masalasini o'zi maxsus shaxsiy dastur asosida uzluksiz oshirib borish. Shaxsiy dastur pedagogni ma'naviy, ma'rifiy, madaniy, kasbiy, metodik, psixo-pedagogik yo'nalishga qaratadi. Uning doimiy raqobatbardosh, malakali kadr bo'lishini ta'minlaydi.
<b>Nutq qobiliyati –</b>	Nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati
<b>Pantomimika -</b>	Gavda, qo'l, oyoq harakati.
<b>Pedagogik aksiologiya –</b>	Ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlanishidagi (pedagogik) qadriyatlarni o'rganadigan pedagogika bo'limi.
<b>Pedagogik innovatsiya</b>	1) pedagogik faoliyatga uning samaradorligini oshirish maqsadida yangiliklarning kiritilishi, ta'lim-tarbiyaning mazmun va texnologiyalaridagi o'zgarishlar;  2) Ta'lim faoliyatida bola shaxsini rivojlantirish jarayoniga oid madaniy an'analarga asoslanib ta'lim jarayoniga yangicha qarash va yondashuvlar.
<b>Pedagogik jarayon –</b>	Ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyaning yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.
<b>Pedagogning mehnati –</b>	Bu behad izlanish va azob-uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni. Ko'pdan-ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va talabalar bilan birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir.
<b>Pedagogik reyting</b>	Ta'lim ta'lim muassasalarida o'qituvchining faoliyati, dasturi, o'quv rejasi, obro'sini baholovchi individual raqam ko'rsatkichi.
<b>Pedagogik tajriba</b>	O'qituvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va amaliy qonunlarini ijodiy faol ravishda o'zlashtirish hamda real sharoitlarni, talabalarning jamoasi, shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tadbiiq etishdir.
<b>Pedagogik texnika</b>	O'qituvchining o'quv faoliyatida o'qitishdan tashqari zarur bo'lgan, umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil

	topadi.
<b>Pedagogik texnologiya</b>	Axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarini ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.
<b>Pedagogik qarama – qarshiliklar</b>	Pedagogik amaliyot jarayonida vujudga keladigan, eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, qonuniyatlar va pedagogik jarayonning tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir.
<b>Persepsiya</b>	Qabul qilish, sezish, ob'ektiv borliqning sezgi organlari orqali aks etishi.
<b>Qobiliyat</b>	Ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli egallab olish uchun shart-sharoit yaratadigan shaxsiy-individual xususiyatlar.
<b>Reyting</b>	Hodisalarni diagnostika (tashxis) yo'li bilan o'lchash; fikr va bahoni tanlash.
<b>Salohiyat</b>	Aniq fan yo'nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos xususiyatni bildiradi.
<b>Sezgi</b>	Kishini o'rab olgan moddiy dunyo, predmet va hodisalarning ongimizda aks etishidir.
<b>Suhbat</b>	Pedagogik muloqot usullaridan biri; u evristik, individual, axborot, mustahkamlash usullaridan farq qiladi.
<b>So'rov, so'roq</b>	Faqat o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tiklabgina emas, balki uni isbotlab va tushuntirib berishdan iborat.
<b>Talab</b>	Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatining namoyon bo'lishidir.
<b>Takomillashuv</b>	Qarama – qarshiliklarning birligi va kurashuvidir, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro'y beradigan o'z-o'zidan harakatlanishdir.
<b>Ta'lim</b>	Insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilimlarni tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan fan, texnika, axloq, madaniyat va san'atni o'zlashtirishga qaratilgan maxsus, uyushtirilgan faoliyat, o'qitish va o'qishdir. Ta'lim turlari ko'p: axloq-odob ta'limi, tabiiy bilimlar bo'yicha ta'lim, texnik ta'lim, kasb-hunar ta'limi, siyosiy ta'lim va hokazo.

<b>Ta'limning tarbiyalovchi xarakteri</b>	O'qitish jarayonida talabalar orttirgan bilim va ko'nikmalar bilan ularning dunyoqarashi, insoniy fazilatlarini rivojlantirish orasida bog'lanishlarga erishilishini ta'kidlovchi pedagogik qonuniyat.
<b>Ta'limda faollik</b>	Ta'lim jarayonida talaba shaxsining faolligi, ta'lim jarayonining sub'ekti ekanligini aks ettiruvchi didaktik jarayon.
<b>Tizim</b>	Yunoncha "systema" so'zidan olingan bo'lib, bo'laklarda hosil bo'lgan, birikish ma'nosini anglatadi. Ya'ni yaxlit, butunlikda faoliyat ko'rsatma oladigan o'zaro bog'liq elementlarning yig'indisidir.
<b>Test</b>	Aniq pedagogik tadqiqot uchun ishlatiladigan so'rovnoma, sinalayotgan talabaning psixologik va intellektual tavsifi, uning bilim, tushunish, uddalash, ko'nikmalarini o'lchashga imkoniyat beruvchi standartlashtirilgan topshiriqlar.
<b>Texnologiya</b>	Ashyo yoki yarim xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun holati, shakli, xossasi, xususiyatlarini o'zgartirish usullari majmuasi.
<b>Tushuntira olish qobiliyati</b>	O'quv materialini talabalarga tushunarli tilda bayon eta olish, talabalarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir
<b>Umumpedagogik tayyorgarlik</b>	Pedagogik kategoriyalar va metodologik asoslar haqidagi bilimlarni shakllantirish, psixologik-pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik va o'zini tuta olish, boladan hamda yoshlardan yoshiga ko'ra rivojlanishidan, asosiy qonuniyatlari haqidagi bilimlarni, talabalardan individual o'ziga xosliklari, pedagogik ishlar bilan qiziquvchanligini shakllantirishdir.
<b>Uslub</b>	Ma'lum o'quv materiallarini o'tishda qo'llanilayotgan asosiy o'qitish usuli bilan birga ikkinchi bor o'qitish usulining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir.
<b>Usul (usul)</b>	Falsafiy va ilmiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli: voqelikni amaliy va nazariy jihatdan o'zlashtirishga qaratilgan, ma'lum tarzda yo'naltirilgan usul va tajribalar yig'indisi.
<b>Yangi axborot texnologiyalari</b>	Kommunikatsiya texnologiyalari asosida turli metod, vositalar asosida olingan axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash asosida ta'lim jarayoniga yo'naltirish.

<b>Shaxs</b>	Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif – uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir.
<b>Shaxsni har tomonlama kamolga yetishi</b>	Ma'lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarning to'liq va batamom rivojlanishidir.
<b>O'z-o'zini anglash</b>	Sub'ekt (shaxs) tomonidan ob'ektiv, real, hayotiy haqiqatni aks ettirish, uning sub'ektiv qiyofasi, obrazini yaratish va o'z xatti-harakatlari hamda faoliyatini o'z-o'zidan boshqaruvini o'zida namoyon etadigan, o'zini boshqalar bilan taqqoslash imkonini beruvchi ong shakli
<b>O'qitish</b>	O'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda talabalarning ma'lumot olishi, o'quv, ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi
<b>O'qish</b>	Talabaning kishilar tajribasidan bilib olgan qonuniyatlarni o'zida aks ettirishdir.

## “KREATIV PEDAGOGIKA” FANIDAN TEST SAVOLLARI

**1. Kreativ pedagogika fanining asosiy metodologik g‘oyalari qaysi fanlardan tashkil topadi?**

- A) Tarix, matematika, kimyo
- B) Pedagogika tarixi, psixologiya, ta’lim texnologiyasi**
- C) Filosofiya, biologiya, fizikadan
- D) Ijtimoiy fanlar, astronomiya, texnika

**2. Kasbiy kamolot insonning qaysi davridan boshlanadi?**

- A) 1-3 yosh
- B) 14-17 yosh**
- C) 25-30 yosh
- D) 50-55 yosh

**3. Ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs-?**

- A) Bunyodkor shaxs
- B) Kreativ shaxs
- C) Ijodkor shaxs**
- D) Barkamol shaxs

**4. Pedagogikada kreativ yondashuvni qanday shakllantirish mumkin?**

- A) Faqat amaliy mashg‘ulotlar orqali
- B) Darslarni avvaldan rejalashtirish orqali
- C) Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali**
- D) Tez-tez o‘qituvchi o‘zgarishi orqali

**5. Ken Robinson tomonidan 2007-yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli video lavha Youtube tarmog‘ida necha marta tomosha qilingan?**

- A) 1 million martadan ortiq
- B) 5 million martadan ortiq**
- C) 500 ming martadan ortiq
- D) 10 million martadan ortiq

**6. "Kreativlik" tushunchasining umumiy ma'nosi qanday?**

- A) Yangilik yaratish va original g‘oyalar ishlab chiqishga tayyorlik**
- B) Faoliyatni tez va samarali bajarish
- C) O‘zgarishlardan qo‘rqmaslik
- D) Mavjud tizimni o‘zgartirishga tayyorlik

**7. Ken Robinsonning "kreativlik" tushunchasiga ko‘ra, kreativlik nima?**

- A) Yangi g‘oyalar va yondashuvlar majmui**
- B) Oddiy, keng qamrovli fikrlash

- C) O'zgarishlarni inkor etish  
D) Yangi texnologiyalarni o'rganish
- 8. Kreativlik va intellekt o'rtasidagi aloqalar haqida qanday qarash mavjud?**  
A) Ular bir-biri bilan bog'liq emas  
**B) Kreativlik va intellekt bir-biriga bog'liq emas, lekin har biri mustaqil rivojlanadi**  
C) Kreativlik intellekt darajasiga to'liq bog'liq  
D) Kreativlik va intellekt o'rtasida qarama-qarshi munosabat mavjud
- 9. Patti Drapeau fikriga ko'ra, kreativ fikrlash qanday xususiyatga ega?**  
A) Bir tomonlama fikrlash orqali yechim topish  
**B) Ko'p tomonlama fikrlash va bir nechta yechimni izlash**  
C) Mavjud yechimni qabul qilish  
D) Yechimni faqat an'anaviy usullar bilan izlash
- 10. E.P.Torrens tomonidan ishlab chiqilgan test qanday maqsadni ko'zlaydi?**  
A) **Shaxsning kreativ fikrlash darajasini aniqlash**  
B) Shaxsning intellektual darajasini o'lchash  
C) Shaxsning ijtimoiy ko'nikmalarini baholash  
D) Shaxsning jismoniy salomatligini tekshirish
- 11. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil nima?**  
A) Ta'lim tizimini rivojlantirish  
B) Kompetentlik  
**C) Kreativlik**  
D) Ta'lim texnologiyalari
- 12. Kreativ pedagogika fanining maqsadi-?**  
A) O'zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish  
**B) Shaxsni kreativ o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish**  
C) Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish  
D) Shaxs faoliyati va uning natijasini takomillashtirish
- 13. Kreativ pedagogikaning obyekti-?**  
A) O'rta yoshdagi bolalar bilan ishlash  
**B) Barcha yosh bosqichlarida kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish jarayoni**  
C) Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish  
D) Xususiy ta'lim olishni xohlagan bolalar
- 14. Pedagogik innovatika nima bilan shug'ullanadi?**  
A) **Pedagogik an'analar bilan kelajak ta'limining loyihalashtirilishini o'rganadi**  
B) O'quv dasturlarining takomillashtirilishini o'rganadi

- C) Faqat pedagogik texnika va metodlarni rivojlantirish bilan shug'ullanadi  
 D) Ta'lim tizimining tizimli boshqaruvini o'rganadi
- 15. Evristika so'zi qanday ma'noni anglatadi?**
- A) Ma'lumotlarni umumlashtirish  
**B) Yechim izlash va yangi g'oyalarni topish san'ati**  
 C) Oddiy va aniq qoidalarni qo'llash  
 D) Tayyor metodlardan foydalanish
- 16. Pedagogning kreativ kompetentligini qanday aniqlash mumkin?**
- A) O'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatlarini berish  
 B) O'qituvchining har bir darsda faqat bitta metodni qo'llashi  
**C) O'quvchilarga yangi g'oyalar ishlab chiqish imkoniyatini berish**  
 D) O'qituvchining darslarni doimiy ravishda o'zgartirishi
- 17. Kreativ pedagog nima qilishi kerak?**
- A) **Erkin fikr yuritishni rag'batlantirish**  
 B) Faqat an'anaviy metodlarni qo'llash  
 C) Faqat ilg'or metodlarni qo'llash  
 D) Yangi g'oyalarni yaratishni to'xtatish
- 18. Oliy ta'lim tizimida kompetentlikka asoslangan yondashuv qanday o'zgarishlarni talab etadi?**
- A) **Yangi ta'lim metodlarini tatbiq qilish**  
 B) Ta'limni faqat bilim olishga qaratish  
 C) Ta'lim jarayonini o'zgartirmaslik  
 D) Yalpi umumiy yondashuvni qo'llash
- 19. O'qituvchining kreativligi va kompetentligi qanday rivojlanadi?**
- A) **Doimiy o'z ustida ishlash, izlanish va yangi g'oyalar ishlab chiqish**  
 B) Faqat yangi bilimlarni o'rganish  
 C) Faqat nazariy bilimlarga asoslangan yondashuv  
 D) Yangi texnologiyalarni o'rganmaslik
- 20. Pedagog o'z faoliyatida kreativ yondashuvni qanday qo'llaydi?**
- A) An'anaviy metodlarni qayta qo'llash orqali  
**B) Yangi usullar va kreativ g'oyalarni amalga oshirish orqali**  
 C) Faoliyatda yangilikka qarshi turish orqali  
 D) Faqat o'quvchilarni o'zlariga xos tarzda o'qitish orqali
- 21. Ijodiy muammolarni hal qilishda qanday qobiliyatlar talab qilinadi?**
- A) Faqat tayyor metodlarni qo'llash  
**B) Mantiqiy va kreativ fikrlash, yangi g'oyalarni ishlab chiqish**  
 C) Oddiy va noaniq vazifalarni bajarish  
 D) Faqat matematik hisob-kitoblarni bajarish

**22. Qaysi faoliyat ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi?**

A) Faqat bitta va oddiy masalalarni hal qilish

**B) Muammolarni turli usullarda hal qilish**

C) Bir xil metodni qo'llash

D) Hech qanday yordamga tayanmaslik

**23. Pedagogik yondashuvda qanday tavsiyalar samarali bo'lishi mumkin?**

A) O'quvchilarga har bir yechimni bir xil tarzda ko'rsatish

**B) O'quvchilarga ma'lum bir yondashuvni mustahkamlash va yangi fikrlash usullarini o'rgatish**

C) Faqat aniq yechimlarni o'rganish

D) Yangi metodlardan foydalanmaslik

**24. Kreativlik muammosi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarni toping?**

A) P.Torrens, Gilford

B) B.Qodirov, Petrovskiy

C) N.Drujinin, Maksimova

D) A.Axmedov, E.G'oziyev

**25. Kreativ qobiliyat va imkoniyatlarning maksimal darajada rivojlanishiga yordam beradigan usullar to'plami nima deb ataladi?**

A) Texnik vositalar

B) Evristik usullar

**C) Kreativ texnologiyalar**

D) Innovatsion metodlar

**26. Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi nima deb ataladi?**

A) Ijodiy topshiriqlar

B) Muammoli topshiriqlar

C) Kasbiy masalalar

D) Ijodiy tafakkur

**27. Nostandart vazifalarni hal qilishda qanday yordam samarali bo'lishi mumkin?**

A) O'quvchilarga har bir qadamni aniq tushuntirish

B) Yechimni butunlay o'quvchidan kutmaslik

C) Faoliyatda faqat ilg'or metodlarni qo'llash

**D) Minimal yordam berish va o'quvchini mustaqil fikrlashga undash**

**28. Nostandart vazifa qanday ta'riflanadi?**

A) Aniqlab bo'ladigan, faqat bitta yechimga ega vazifa

B) Oddiy metodlar bilan hal qilinadigan vazifa

**C) Ijodiy prinsipni o'z ichiga olgan va hal qilinishi uchun yangi yondashuvni**

**talab qiladigan vazifa**

D) Faqat matematik hisob-kitoblarni talab qiladigan vazifa

**29. Nostandart vazifalarni hal qilishda qanday metodlar samarali bo‘lishi mumkin?**

A) Faoliyatda bir xil metodlardan foydalanish

B) Faqat matematik formulalar yordamida yechim izlash

**C) Model yaratish, grafiklar va diagrammalar yordamida muammoni tasvirlash**

D) Faqat amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish

**30. Matematik va ijodiy fikrlash o‘rtasidagi farq nima?**

A) Matematik fikrlash faqat hisob-kitoblarga asoslanadi, ijodiy fikrlash esa faqat tasavvurga tayanadi

**B) Ijodiy fikrlash ko‘proq tajriba va izlanishga asoslanadi, matematik fikrlash esa aniq qonuniyatlarga tayanadi**

C) Matematik fikrlash faqat grafik va diagrammalarni o‘rganishga asoslanadi

D) Ijodiy fikrlash o‘ziga xos bo‘lgan va aniq yechimni talab qiladigan vazifalarni hal qilishga asoslanadi

**31. Qaysi usul ijodiy fikrlashni rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin?**

A) Muammoli vazifalarni faqat nazariy tarzda yoritish

**B) Vizual tasvirlar, diagrammalar va grafiklar yordamida vazifalarni hal qilish**

C) Doimiy ravishda bir xil masalalarni yechish

D) Faqat yangi bilimlarni o‘rganish

**32. Kreativ fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin?**

A) Faqat aniq va oson vazifalarni bajarish

**B) Muammolarni turli usullar bilan hal qilishga o‘rgatish**

C) Faqat matematik metodlardan foydalanish

D) O‘qituvchining yordamidan butunlay foydalanmaslik

**33. Ijodiy muammoning xususiyati nima?**

A) Yechimi doimiy ravishda mavjud bo‘ladi

B) Muammo va yechimning aniqligi faqat matematik formulalar orqali belgilanadi

**C) O‘quvchilarning ijodiy yondashuvini talab qiladi, bitta yechim yo‘q**

D) Muammo o‘rganilgan va standart yechimga ega bo‘ladi

**34. Qanday vazifalar ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi?**

A) Faqat klassik va oddiy vazifalar

**B) Mavhum va konkret fikrlashni rivojlantiradigan turli xil muammolar**

C) Yalpi mashqlar va izlanishlarsiz vazifalar

D) Faqat matematik hisob-kitoblar

**35. Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi nima deb ataladi?**

- A) **Ijodiy topshiriqlar**
- B) Muammoli topshiriqlar
- C) Kasbiy masalalar
- D) Ijodiy tafakkur

**36. Mantiqiy fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin?**

- A) O'quvchilarni faqat mantiqiy savollarga javob berishga o'rgatish
- B) Faqat mantiqiy qoidalarni o'rganish
- C) **Muammoli vazifalarni hal qilish va ijodiy ishlashga o'rgatish**
- D) Doimiy ravishda sinovlardan o'tkazish

**37. O'qituvchining kreativ kompetentligi qanday ko'nikmalarni o'z ichiga oladi?**

- A) **Yangi g'oyalarni yaratish va amalga oshirish**
- B) O'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan ta'minlash
- C) Faqat darsni rejalashtirish
- D) Yangi texnologiyalarni joriy etmaslik

**38. O'qituvchining kreativ fikrlashini rivojlantirishda qanday metodlar qo'llaniladi?**

- A) Amaliy mashg'ulotlar
- B) Klasik usullar
- C) **Faoliyatda izlanish va innovatsiyalarni qo'llash**
- D) Faoliyatda yangilikka qarshi turish

**39. Bo'lajak pedagogning kreativlikni qanday rivojlantirish mumkin?**

- A) Faqat bilimlar asosida
- B) **Erkin fikrlashni ta'minlash va muammolarni hal qilish orqali**
- C) Yalpi umumiy ma'lumotlar berish
- D) O'qituvchi tomonidan qat'iy nazorat qilish

**40. O'qituvchining kreativlik faoliyatining 1-bosqichida nima amalga oshiriladi?**

- A) **Yangi g'oyalar yaratish**
- B) Tayyor metodik tavsiyanomalar ko'chiriladi
- C) O'quvchilarga kreativlikni o'rgatish
- D) Mustaqil izlanishlar boshlanadi

**41. Kreativlikni rivojlantirishda qanday psixologik mexanizm qo'llaniladi?**

- A) Faoliyatda yangiliklarni qo'llash
- B) Kichik guruhlarda ishlash
- C) **Intellektual faollikning evristik bosqichi**
- D) Darsni rejalashtirish

**42. Pedagogik kreativlikni qanday rivojlantirish kerak?**

A) O'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan ta'minlash

**B) Fikrlarni erkin izlash va muammolarni yechishda yangi yondashuvlarni qo'llash**

C) Faqat amaliy mashg'ulotlar o'tkazish

D) Ta'limda doimiy yangiliklarni taqiqlash

**43. Pedagogning kreativligi nima bilan bog'liq?**

**A) Yangi g'oyalar yaratish va yangiliklarni joriy etish**

B) Darsni an'anaviy tarzda o'tkazish

C) Doimiy ravishda sinovlardan o'tkazish

D) Faqat nazariy bilimlar bilan ishlash

**44. Kreativ pedagogikaning obyektini?**

A) O'rta yoshdagi bolalar

**B) Barcha yosh bosqichlarida kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish jarayoni**

C) Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish

D) Xususiy ta'lim olishni xohlagan bolalar

**45. Kreativlikni rivojlantirishda qanday usullar samarali hisoblanadi?**

A) Faqat tahlil va sintez

**B) Muammoli masalalarni hal qilish, yaratish va yangi g'oyalar ishlab chiqish**

C) Mavzularni eslatib o'tish

D) Darsda faqat bir xil metoddan foydalanish

**46. Nostandart vazifa qanday ta'riflanadi?**

A) Aniqlab bo'ladigan, faqat bitta yechimga ega vazifa

B) Oddiy metodlar bilan hal qilinadigan vazifa

**C) Ijodiy prinsipni o'z ichiga olgan va hal qilinishi uchun yangi yondashuvni talab qiladigan vazifa**

D) Faqat matematik hisob-kitoblarni talab qiladigan vazifa

**47. Kreativ qobiliyat va imkoniyatlarning maksimal darajada rivojlanishiga yordam beradigan usullar to'plami nima deb ataladi?**

A) Texnik vositalar

B) Evristik usullar

**C) Kreativ texnologiyalar**

D) Innovatsion metodlar

**48. Har qanday intellektual faoliyat uchun zarur bo'lgan minimal mantiqiy ko'nikmalar nima deb ataladi?**

A) Evristik qoidalar

B) Nostandart vazifalar

**C) Mantiqiy savodxonlik**

D) Nostandart yechimlar

**49. Potensial kreativlik nima?**

A) ijodning zaruriy maqsadli sharti

B) ijodning zaruriy maqsadsiz sharti

**C) ijodning zaruriy subyektiv sharti**

D) ijodning zaruriy obyektiv sharti

**50. Kreativ pedagogika fanining asosiy metodologik g'oyalari qaysi fanlardan tashkil topadi?**

A) Tarix, matematika, kimyo

**B) Pedagogika tarixi, psixologiya, ta'lim texnologiyasi**

C) Filosofiya, biologiya, fizikadan

D) Ijtimoiy fanlar, astronomiya, texnika

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – B.103.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – B.146.
7. Abdullayeva Sh. Bilim va tarbiya jarayoni yaxlitligi pedagogik texnologiya masalalaridir. // Guliston, 2001-yil 2-soni.
8. Artikova M.B., To'raboyeva M.R. Pedagogik texnologiyalar – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2021.
9. Ayupov T.X., Ahmadjonov X.I., Imomqoriyeva Sh.R. Samarali ta'lim berish usullari. –T.: 2003.
10. Ashurova S. Maxsus fanlarni modul texnologiyasi asosida o'qitish. // Kasb-hunar ta'limi. 2004-yil 5-soni.
11. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: 2006.
12. Ahrorova Z. O'qitishning yangicha usullari. // Ta'lim va tarbiya, 2003-yil 3-4-sonlari.
13. Alimov X.M. Aqliy hujum. // Ta'lim va tarbiya, 2006-yil 2-soni.
14. Abdurazzoqova Z., Mamatova M. Darslarda yangi ilg'or texnologiyaning qo'llanilishi // Ta'lim texnologiyalari; 2007-yil 1-soni.
15. Boltayev N., Norimov Sh., Abdalova S. Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish yo'llari // Ta'lim texnologiyalari, 2006-yil 3-soni.
16. Bozorova S. Kasbiy yo'naltirilgan muammoli o'qitish samaradorligini oshirish // Kasb-hunar ta'limi, 2006-yil 5-soni.
17. Bayboeva A. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi va kasbga yo'naltirilganlik. // Kasb-hunar ta'limi, 2005-yil 5-soni.

18. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989
19. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
20. Gulboyev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish. –Navoiy, 2001.
21. Гулямов С.С., Мибаратова Л.И., Абдуллаева А.Х. Внедрение новых информационных технологии дистанционного обучения образовательных учреждениях Узбекистана. –Т.: 2002.
22. Гулямов С.С., Мибаратова Л.И., Абдуллаева А.Х. Новые педагогические технологии. Рекомендации по организации дистанционного обучения. –Т.: 2002.
23. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. –Т.: Tasis 2001.
24. Davron Sh. Algoritmik texnologiyalar. Kasb-hunar ta'limi, 2007-yil 2-soni.
25. Dehqonova M.U., Djanaliyeva G.A. Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta'lim texnologiyalari, 2006-yil 2-soni.
26. Ermolaeva-Tomina L. B. The study of factors determining individual differences in the manifestation of creative activity // Psychology of creativity. M., 1990. pp. 117-130.
27. Jumayev A.Sh. O'quvchilar faolligini oshirishda innovatsion metodlarning o'rni // Kasb-hunar ta'limi, 2007-yil 3-soni.
28. Ziyomuhammadov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. "Ma'naviyat asoslari" darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. –Т.: 2001.
29. Ziyomuhammadov D. Komillikka eltuvchi kitob. –Т.: 2006.
30. Zamonaviy ta'limning tashkiliy va ilmiy-metodik muammolari. –Т.: 2005.
31. Ibodullayev Q. Rivojlantiruvchi ta'lim modelini loyihalash // Kasb-hunar ta'limi, 2005-yil 4-soni.
32. Ismoilova M.Yu. Kasbiy mutaxassislik fanlarini o'qitishda in-terfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari. Ta'lim texnologiyalari , 2006-yil 4-soni.
33. Ishmuhamedov A. Masofadan o'qitish – yangi pedagogik texnologiya.// Iqtisodiyot va ta'lim, 1-soni
34. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –Т.: 2004.
35. Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma. –Т.: 2002.

36. Mamajonov I. Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda aniqlashtirilgan maqsadli differensial texnologiyalarni qo‘llash // Xalq ta’limi, 2005-yil 5-soni.
37. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
38. Muslimov N.A. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi” /Monografiya. –T.: ”Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
39. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000.
40. Olimov Q. Modul texnologiyasi asosida o‘quv adabiyotlarini yaratish //Kasb-hunar ta’limi, 2004-yil 6-soni.
41. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: «O‘qituvchi», 2002.
42. Rahmonova Ye.R., Razzoqov D.N. “Pedagogik texnologiyalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. –T.: 2007.
43. Salomov A.A., Mirzayev M.B. Masofadan o‘qitish texnologiyalari. Termiz, 2004.
44. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003
45. Tolipov O‘.Q., Usmonberdiyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma; -T.:«Fan», 2006.
46. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. –T.: 2007.
47. Tolipova J.O., To‘rayev A.B. “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. (Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy - metodik markazi) – T.: TDPU, 2016.
48. “Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari” mavzusidagi seminar trening materiallari. –T.: 2002.
49. Tillashayxova M. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning ta’lim tizimini rivojlantirishdagi o‘rni.// Iqtisodiyot va ta’lim, 2005-yil 2-soni.
50. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. ”Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. – T.: “Fan”, 2005.
51. Torrance E.R. Creativity and futurism in education: Retooling Education 1980. Vol 100 P
52. Usmonova Sh., Rahimov B. Muammoli ta’limni tashkil etishning psixologik asoslari. // Xalq ta’limi, 2005-yil 5-soni.
53. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. –T.: Fan, 2000.
54. Farberman B.L., Musina R.G. Jumaboyeva F.R. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari. –T.: 2002.

55. Xodiyev B., Golish L. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. –T.: 2006.

56. Ergashev R.X. Interaktiv usullarni ta'lim tizimiga joriy etish tajribasi, // Uslub va vositalari. //Ta'lim texnologiyalari, 2006-yil 2-soni.

57. Yahyoev M.S., Tojiyeva F. Masofadan o'qitish va o'qitish tamoyillari to'g'risida // Ta'lim texnologiyalari, 2006-yil 4-soni.

58. Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. M., 2007.

59. Шодмонов Ш.Ш., Баубекова Г.Д. Халикова Г.Т. Инновационные методы обучения в экономическом образовании. – Т.: «Фан», 2003.

60. Hasanov P., Botirov M. Masofaviy ta'lim uchun yangi texnologiyalar.// Jamiyat va boshqaruv, 1999-yil 1-2-sonlari.